

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

MIKROOBYEKTAR TADQIQOTI

O‘QUV QO‘LLANMA

Mas’ul muharrir yuridik fanlar nomzodi, dotsent
T.B.Mamatqulov

TOSHKENT–2017

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik hay‘atida ma’qullangan*

Mualliflar:

G.F. Nikishin, A.D. Xusanov, T.B. Mamatqulov, M.M. Luqmonov

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli
Respublika sud ekspertiza markazi direktori o‘rinbosari, yuridik fanlar
nomzodi, dotsent **A.K.Zakurlaev**;
yuridik fanlar doktori, dotsent **D.M.Mirazov**

M-49 **Mikroobyektlar tadqiqoti:** O‘quv qo‘llanma / G.F.Nikishin va
boshq; Mas’ul muharrir yuridik fanlar nomzodi, dotsent
T.B.Mamatqulov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
2017. – 82 b.

Qo‘llanmada mikroobyektlar tadqiqotlarining metodologik, protsessual, taktik va metodik jihatlari yoritilgan. Mikroobyektlar tadqiqotiga bunday yondashuv ular yordamida olinadigan kriminalistik ahamiyatga ega ma’lumotlardan unumli foydalanish va natijada jinoyatlarni ochish samaradorligi hamda ularni tergov qilishda daliliy asoslarni shakllantirishga imkon beradi.

IIV Akademiyasi va Vazirlik oliy ta’lim muassasalarining tinglovchi va kursantlariga, professor-o‘qituvchilariga, ichki ishlar organlarining amaliyotchi xodimlariga, shuningdek, mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boruvchilarga mo‘ljallangan.

BBK 67.99 (5U) 94ya73

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017

SO‘ZBOSHI

Turlicha jismlarning o‘zaro ta’sirlashishi natijasida, shuningdek, har qanday jinoyat sodir etilganida ham mikrobyektlar hosil bo‘ladi. Jinoyatning moddiy sharoitlaridagi turli buyumlarda mikrobyektlarning mavjud bo‘lishi an’anaviy izlar manzarasini to‘ldiradi, chunki mikrobyektlar boshqa turdagi obyektlardan farqli ravishda ma’lumotlarga boyligi nuqtai nazaridan takrorlanmas, belgilar majmuiga ega bo‘ladi. Bu belgilar turli ta’sirlarga nisbatan turg‘un, chidamli va ularning lokallasishi sodir bo‘lgan hodisaning mexanizmini yanada to‘la va chuqurroq tushunishga imkon bera oladi.

Jinoyatlarni ochish va tergov qilishda mikrobyektlardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi IIV tergov va boshqa sohaviy xizmatlari xodimlarining e’tiboridan chetda bo‘lmagan, ammo ta’kidlash joizki, butun diqqat-e’tibor asosan mikrobyektlarning ekspertiza tadqiqotlarining metodik ta’minotiga yo‘naltirilgan. Ammo, ekspertiza – butun ish faoliyatining yakuniy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mikrobyektlardan yanada to‘liq foydalanish masalalari esa birmuncha talab darajasida emas. Jumladan, mikrobyektlardan foydalanishning nazariy muammolari etarlicha o‘rganilmagan. Darhaqiqat, ushbu yo‘nalish bo‘yicha maxsus adabiyotlar o‘rganilsa, mikrobyektlar tadqiqotlariga oid maxsus atamalarning turlicha talqin etilishi, har bir ilmiy yo‘nalishda mavjud bilimlarni tizimlashtirish jarayonining oxiriga etkazilmaganligi kabilarni ko‘rish mumkin.

Kriminalist-olimlar va amaliyotchi xodimlarning qiziqishlari bilan ifodalanadigan uzoq tarixga va boshqa moddiy izlarga nisbatan yaqqol ifodalanadigan o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan mikrobyektlar jinoyatlarni ochish va tergov qilishning texnik-kriminalistik ta’minotida alohida o‘rin tutadi. Chunki mikrobyektlardan keng va samarali foydalanish isbotlov jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda mikrobyektlardan foydalanishda kriminalistika fani va sud-ekspertizasining asosiy prinsiplaridan biri – ilmiy bilimlarning integratsiyasi prinsipi o‘z aksini topadi. Mikrobyektlar bilan ishlashning barcha bosqichlarida (ya’ni, ularni izlab topishdan boshlab to ekspertiza tadqiqotlari natijalarini baholashgacha) turlicha tabiiy va huquqiy fanlarning qoidalaridan foydalaniladi. O‘zbekiston

Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari tomonidan mikroobyektlarni aniqlab olish va ularning tegishli (dastlabki yoki kriminalistik) tadqiqotlari muntazam ravishda o'tkazib kelinadi. Agar statistik ma'lumotlarga murojaat qilinsa quyidagilarni ko'rish mumkin.

Masalan, ushbu xizmat xodimlari tomonidan:

2015-yilda «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari ekspert-kriminalistika xizmatlarining 2015-yilning 12 oyi yakuni bo'yicha asosiy analitik ma'lumotlarga» ko'ra respublika bo'yicha 2015-yilda 970690 ta jinoyat bo'yicha ekspertlar operativ-qidiruv tadbirlar va tergov harakatlariida ishtirok etishgan bo'lib, ulardan 446980 tasida – 46,85% jinoyatlarni ochishda ko'maklashishgan, 30736 ta turli ekspertizalar tayinlangan ulardan 26580 tasi – 86,48% bo'yicha ijobiy xulosa berilgan, 305910 ta tadqiqotlar amalga oshirilib, ulardan 106754 tasi – 34,9% ijobiy xulosa berilgan, hodisa joyini ko'zdan kechirishda ishtirok etish 45096 ta bo'lib, undan 36156 tasi – 80,18% ijobiy xulosalar berilgan, daktohisob yordamida 2020 ta jinoyatning ochilishida ko'maklashilgan. Ushbu analitik ma'lumotlarga ko'ra hodisa sodir bo'lgan joydan daliliy ash'yolarni olish bo'yicha mikrozarachalar olinganligi qayd etilmagan¹.

2016-yilda jami hodisa sodir bo'lgan joylarni ko'zdan kechirish tadbirlarida mikroobyektlar deyarli aniqlab olinmagan va jinoyatlarni ochish yoki jinoyatchilarni qidirishga ko'maklashuvchi ma'lumotlar deyarli berilmagan.

Ushbu ma'lumotlarni inobatga olgan holda ta'kidlash joizki, kriminalistik ekspertizalarning barcha imkoniyatlariga qaramasdan bu sohada ayrim muammolar ham uchraydi. Ushbu muammolarning eng asosiylari sirasiga ekspert-kriminalistlar malakasining etishmasligi yoki bilim saviyalarining zamonaviy talablar darajasida emasligi (masalan, mikroobyektlarni hodisa joyida etarlicha tarzda aniqlab olinmasligi, dastlabki tadqiqotlar o'tkazishda zarur mantiqiy usullar va operatsiyalarni noto'g'ri qo'llash, obyektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni buzilgan holda tasavvur qilish, o'rnatilgan qoidalar yoki ularning tartibini buzish, ushbu faoliyat uchun mo'ljalangan vositalardan noto'g'ri foydalanish) bilan bog'liq muammolardir. Vaholanki, jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning oldini olish, jinoyatning ochilishi va tergov

¹ Ўзбекистон Республикаси ИИВ Ҳайъатининг 2016 йил 21 январь куни бўлиб ўтган йиғилишининг ВХ-1-сонли қарорида келтирилган маълумотлар.

jarayonining samarasi ushbu faoliyat subyektlarining kasbiy mahorati darajasiga bog'liqdir. Kasbiy mahorat darajasini esa birinchi navbatda qidiruv-izlanish faoliyati subyektlarining ta'lim jarayonida va amaliy mashg'ulotlarda olgan maxsus bilimlari belgilaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki ash'yoviy dalillar ichida, mikroskopik tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lgan, kichik o'lchamli obyektlar muhim o'rin egallaydi. Bunday obyektlar qatoriga chang zarralari ko'rinishidagi tuproq birikmalari, tolali maxsulotlar, ko'chgan bo'yoq qatlamlari, zarralari hamda boshqa shunga o'xshash obyektlarni kiritish mumkin.

Hozirgi kunda mikroobyektlar haqidagi nazariy bilimlar va ularning amaliy faoliyatda tatbiq etilishi jarayoni empirik materiallarni to'plash va tahlil qilish bosqichiga etib keldi. Shu bois, bu bilimlarni va amaliy tajribalarni tizimlashtirish va mikroobyektlar haqidagi bilimlar alohida mustaqil ta'limot sifatida shakllanmoqda. Buning uchun ushbu ta'limotning konseptual asoslarini ishlab chiqish, kriminalistika va sud-eksper-tiza tizimidagi o'rnini aniqlash, vazifalarini aniqlashtirish va huquqiy asosini yaratish lozim. Ushbu qo'llanmada aynan shu masalalarni yoritishga harakat qilingan.

1-§. «MIKROOBYEKTLAR» TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFLANISHI

Har qanday turdagi jinoyatni ochish va tergov qilish ushbu salbiy hodisaning jarayoni va moddiy obyektlariga aloqador ma'lumotlarga uzviy bog'liqdir. Hodisa sodir bo'lgan joydagi moddiy obyektlar o'zaro ta'sirlashadi va natijada ularning holati o'zgaradi. Bu o'zgarish esa obyektlar zarrachalarining o'zaro almashinuvi natijasida yuzaga keladi. Obyektlarning o'zaro ta'sirlashishi natijasida obyektlarning o'zida ham, ularning atrofida ham o'zgarishlar yuz beradi. Sodir etilgan jinoyat hodisasiga nisbatan bu holat muhitdagi hodisaning natijasi bilan ifodalanadi, ya'ni jinoyatning izli kartinasi hosil bo'ladi.

Ma'lumki, kriminalistika fanida izlar o'rganiladi va ular orasida turli xil juda kichik o'lchamli izlar (chang, tuproq birlashmalari, har xil to'lar, odam, biologik, o'simlik yoki hayvondan kelib chiqishiga ega zarrachalar, bo'yoq tomchilari, turli qirindilar, lok-bo'yoq qoplamalarining qirindilari, turli ifloslanishlar, turli moddalar hamda o'simliklarning zarrachalari va h.k.) alohida o'rin tutadi. Agar bu moddiy obyektlar – mayda jismlar (mikroobyektlar) jinoyat hodisasi bilan sababiy bog'liqlikda, ya'ni ular jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, uni sodir etish yoki yashirish jarayonida hosil bo'lgan hamda bular haqida tegishli ma'lumotlarni o'zida saqlab qolgan bo'lsa, u holda mikroobyektlar kriminalistik nuqtai nazardan iz deb hisoblanadi.

Bu obyektlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarni qiziqtiruvchi hodisalar bilan bog'liqligi va jinoyat yoki uning alohida epizodini tushunishga yoki tushuntirishga imkon beradigan ahamiyati avvaldan ma'lum. Kriminalistika fani va sud-ekspertizalarining rivojlanishi bilan bir qatorda tegishli tadqiqot obyektlarining tekshirish metodlari ham takomillashib bormoqda. Tadqiqotlarning imkoniyatlari haqidagi qarashlar ham ijobiy tomonga o'zgarmoqda. Biroq, mikroobyektlardan jinoyatchilikka qarshi kurashning ko'p asrlik tarixiga qaramasdan, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda mikroobyektlarni kriminalistik izlarning aynan qaysi guruhiga kiritish masalalari, mikroobyektlar tadqiqotlariga oid maxsus atamalarni ishlab chiqish va yagona tarzda talqin qilish bo'yicha vazifalar oxirigacha hal etilmagan.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi sud-ekspertiza muassasalarining zamonaviy imkoniyatlari izlarning ushbu turiga quyidagicha yondashuvni talab qiladi:

birinchidan, mikroobyektlarning jinoyat hodisasi bilan sababiy bog‘liqlikda ekanligi nuqtai nazaridan;

ikkinchidan, mikroobyektlar haqidagi nazariy bilimlarning kriminalistik texnikaning yagona nazariyasiga integrallashuv nuqtai nazaridan;

uchinchidan, sud-ekspertizasining alohida bir sohasi – mikroobyektologiya sifatida o‘rganish nuqtai nazaridan.

Ma’lumki, jinoyat hodisasi bilan bog‘liq mikroobyektlar:

– iz hisoblanadi va yuqori axborotli ahamiyatga ega;

– ular boshqa obyektlar bilan bir qatorda ashyoviy dalil sifatida maydonga chiqadi;

– mikroobyektlarni qidirish, aniqlash va olish o‘ziga xos xususiyatga ega;

– mikroobyektlarning tadqiqotlari ekspert oldiga qo‘yilgan vazifalarning xususiyatlaridan kelib chiqib, asosan fizikaviy-kimyoviy metodlar bilan amalga oshiriladi;

– hozirgi kunga kelib sud-ekspertizasida mikroobyektlar tadqiqotlari bilan bog‘liq alohida yo‘nalish vujudga kelgan va mustaqil ta’limot sifatida shakllanmoqda.

Shu bois, mikroobyektlar tadqiqotlari bilan bog‘liq maxsus atamalarni ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi. «Mikroobyekt» atamasining asosini yunoncha «mikros» – «kichik» so‘zi tashkil qiladi va u miqdoriy belgi, ya’ni juda kichik o‘lcham va hajmli obyekt, jism, modda yoki elementni ifodalaydi.

Umuman, hozirgi kunda mikroobyektlarni boshqa turdagi obyektlardan ajratish uchun quyidagi uch yo‘nalish mavjud:

1) aniq o‘lchamli xususiyatlarini ifodalash bilan;

2) mikroobyektlarning sifatga oid belgilarini aks ettirish vositasi bilan;

3) miqdor va sifatga oid mezonlar majmui bilan.

Ta’kidlash joizki, kriminalistikada mikroobyektlar bo‘lib turli moddiy hosilalar hisoblanadi. Bu mikrotolalar, lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalarining zarrachalari, shisha parchalari va narkotik vositalarining zarrachalari, turli biologik ajratmalar va shu kabilar hisoblanadi. Ular nafaqat tabiati bilan, balki tashqi va ichki tuzilishi, kriminalistik ahamiyatga ega belgilarining xususiyati, ko‘rinish darajasi, morfologik belgilarining ifodalanganlik darajasi, xossa va xususiyatlarini o‘zgartir-masdan qayd etish va olish imkoniyatlariga ko‘ra ham o‘zaro farqlanadi. Shu bois, barcha turdagi mikroobyektlar uchun yagona miqdorga oid mezon ishlab chiqishning imkoni yo‘q.

Turli obyektlarni mikroobyekt deb hisoblash uchun hozirgi kunda kriminalist-olimlar tomonidan mikroobyektlarning quyidagi xususiyatlari taklif qilingan:

- 1) kichik o'lchamli, mayda, juda mayda obyektlar;
- 2) juda kam miqdordagi an'anaviy obyektlar;
- 3) cheksiz mayda obyektlar;
- 4) juda kichik o'lchamli obyektlar;
- 5) paramikroobyekt, ultramikroobyekt va submikroobyektlar;
- 6) oddiy ko'z bilan yaxshi ko'rinmaydigan obyektlar;
- 7) kam miqdor va va juda kichik maydonga ega obyektlar;
- 8) ajratib bo'lmaydigan darajadagi kichik chegara va tashqi tuzilishli belgilarga ega obyektlar;
- 9) oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan mayda zarrachalar;
- 10) oddiy sharoitlarda ko'rinmaydigan mayda jismlar yoki material va moddalarning juda kam miqdori;
- 11) shakli va o'lchamlari oddiy ko'z bilan ko'rinmaydigan kichik o'lchamli moddiy obyektlar;
- 12) tadqiqotlar uchun maxsus texnik vosita va metodlar talab etiladigan obyektlar;
- 13) mayda ashyoviy dalillardan yana ham kichik miqdorga oid xususiyatlari bilan farq qiladigan obyektlar.

Mikroobyektlarni boshqa turdagi obyektlardan farqlash uchun quyidagi yondashuvlar mavjud: ularni tabiiy va boshqa fanlarda qabul qilingan o'lcham, hajmiy yoki og'irlik xususiyatlariga ko'ra o'rganish; asos sifatida ularni aniqlab olish va tadqiq qilish uchun qo'llaniladigan maxsus metodlarni olish; aralash shaklda farqlash, ya'ni mikroobyektlarni miqdor, sifat yoki aralash shaklda baholab ajratish. Shu boisdan, mikroobyektlarning tushunchasini to'liq yoritish zarur. Mikroobyektlar – bu ashyoviy dalillar hisoblanadigan moddiy hosilalar bo'lib, materiallar va moddalarning sud ekspertizalari doirasida tekshiriladi. Ushbu tekshiruvlarning metodologik asosi tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya va h.k.), shuningdek, kriminalistika va sud-ekspertizasining tegishli sohalari hisoblanadi. Yuqoridagidan quyidagi ta'rif kelib chiqadi:

Mikroobyektlar deganda, barqaror tashqi tuzilishga ega, turli xususiyatlari shartli ravishda «yuqori» va «quyi chegaralar» deb nomlanadigan chegara orasida joylashgan hosilalar tushuniladi. Yuqori chegara – mikroobyektlarning mavjudligi va ularning tegishli xossalarni aniqlash hamda ob'ektni alohidalashtirish uchun texnik vositalarni

qo'llash zarurati, «quyi chegara» esa morfologik tekshirishlar imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi.

Soddaroq aytilsa, mikroobyektlar – mikroskopik o'lchamga ega har qanday jism. Kattaroq obyekt (jism, buyum)larning tarkibiy qismi bo'lgan mikroobyektlar u yoki bu tarzda bu obyektning xususiyatlarini aks ettiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ta'rifni keltirish mumkin:

Mikroobyektlar deganda, jinoyat hodisasiga tegishli bo'lgan o'lchamlari va massalari kichik bo'lgan shunday obyektlar tushuniladiki, ularni hodisa joyida topish, olish va tadqiq qilish maxsus vosita va apparatlarning qo'llanishini talab qiladi.

Mikroobyektlar bilan ishlash o'ziga bir necha bosqichni qamrab oladi:

- 1) hodisa joyida mikroobyektlarni qidirish va topish;
- 2) texnik qayd etish (foto, videotasvirga olish);
- 3) ko'zdan kechirish;
- 4) mikroobyektlarni olish;
- 5) hodisa joyida mikroobyektlarning «ekspress tahlili» va dastlabki tadqiqoti;
- 6) mikroobyektlarni ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd etish;
- 7) mikroobyektlarni o'rab joylashtirish;
- 8) mikroobyektlarni saqlash;
- 9) mikroobyektlar bo'yicha ekspertiza tayinlash.

Har bir bosqichning o'ziga xos alohida vazifalari mavjud va ularning barchasini mikroobyektning turi, ko'rinishi va guruhini farqlash uchun etarli bo'lgan belgilarni aniqlashdek umumiy vazifaga birlashtirish mumkin. Yuqoridagilardan, mikroobyektlarning, ular aniqlab olingandan boshlab guruhiy mansubligi (avval, turi, keyin guruhi)ni aniqlashdan boshlanadigan va ekspertiza xulosasi bilan yakunlanadigan mikroobyektlar bilan ishlash texnologiyasi yuzaga keladi.

Mikroobyektlarning yuqoridagi ta'rifidan, ularning tasniflanishi va tekshirishlar jarayonida ishlatiladigan maxsus atamalar kelib chiqadi.

Mikroizlar:

- mikroobyektlar;
- mikrozarrachalar;
- moddalarning mikromiqdori;
- mikrobeltlar;
- mikromoddalar;
- tushgan izlar va boshq.

Mikromoddalar:

- mikroobyektlar;
- mikrozarrachalar;

- mikroizlar;
- mikroelementlar;
- tushgan izlar va boshq.

Yuqoridagi maxsus atamalarning mazmunini ko‘rib chiqaylik.

1. Mikroizlar:

- kichik o‘lchamga ega bo‘lgan an’anaviy trasologik izlar;
- mikrozarachalar mavjudligi hisobiga moddiy obyektlarda yuz bergan o‘zgarishlar.

2. Mikrozarachalar:

- barqaror geometrik va morfologik xususiyatga ega qattiq jismlar;
- oddiy sharoitlarda ko‘rinmaydigan yoki yaxshi ko‘rinmaydigan turli mayda jismlar.

3. Mikromoddalar:

- materiyaning sifatga oid mohiyati, fizik jismning tarkibiy qismi. U qattiq, suyuq yoki gaz holatida bo‘lishi mumkin, «mikromodda» atamasi bu holatlar orasidagi farqlarni ifodalamaydi.

4. Mikrotola-izlar:

- barqaror xususiyatlarga ega, kichik og‘irlik va barqaror tashqi shaklga ega, uzunligi qalinligidan birozgina farq qiladigan jismlar (turli matolar, iplar, arqon, soch tolalari va h.k.).

5. To‘kiluvchan moddalar:

- barqaror geometrik va morfologik xususiyatga ega qattiq jismlar;
- ko‘p miqdordagi qattiq zarrachalarning yig‘indisi va ushbu zarrachalarning o‘lchami juda kichik bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, to‘kiluvchan moddalarning alohida bir zarrachasigina mikroobyekt hisoblanadi va bu alohida zarracha ushbu to‘kiluvchan moddaning mikromiqdori hisoblanmaydi. «Mikromiqdor» atamasi esa suyuq moddalarga nisbatan ishlatiladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ekspertiza tadqiqotlariga taqdim etilguniga qadar, mikroobyektlar bilan ishlash bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi: qidirish, aniqlash, qayd etish, olish va dastlabki tadqiq qilish. Bu bosqichlarning har biri mikroobyektlarning u yoki bu belgilarini hisobga olgan holda tashkil etiladi va ish faoliyati texnologiyasini aniqlaydi. Ko‘rinib turibdiki, mikroobyektlar bilan ishlash ko‘p bosqichli jarayon. Har bir bosqichda yuzaga kelgan tergov vaziyatiga bog‘liq holda tegishli vazifalar bajariladi va kerakli natijalar olish imkoniyati hisobga olinadi. Mikroobyektlarning tasniflanishi ham ushbu jarayonga mos bo‘lishi lozim, ya’ni mikroobyektlar bilan ishlash jarayonining har bir bosqichi talabiga mos keluvchi tasniflash tizimi zarur bo‘ladi. Shu bois, *mikroobyektlarning quyidagi tasniflash tizimi* ishlab chiqilgan:

– mikroobyektlarni aniqlash va olishda qo‘llaniladigan (birinchi daraja) tasniflash tizimi;

– mikroobyektlarning turga mansubligini va unga mos holda ekspertiza tadqiqotlari turini aniqlashda qo‘llaniladigan (ikkinchi daraja) tasniflash tizimi. Masalan, agar mikroobyekt material yoki modda hisob-lansa, u holda aynan shu turdagi obyektning tadqiqotlari, agar mikroobyekt biologik modda bo‘lsa, biologik tadqiqot va ekspertizalar tayinlanishi lozim;

– mikroobyektlarning guruhiiy mansubligini va unga mos holda tayinlanadigan ekspertiza turini aniqlashda qo‘llaniladigan (uchinchi daraja) tasniflash tizimi. Masalan, mikroobyekt tolali material hisoblana-di va tolalar materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning eksper-tizasi tayinlanadi);

– mikroobyektlarning individual mansubligini aniqlashda qo‘llanila-digan (to‘rtinchi daraja) tasniflash tizimi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mikroobyektlarni turli asoslarga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) moddiy mavjudlik shakliga ko‘ra;
- 2) ko‘rinish darajasiga ko‘ra;
- 3) mustahkam shaklining mavjudligiga ko‘ra;
- 4) kelib chiqish manbaiga ko‘ra;
- 5) guruhiiy tegishliligiga ko‘ra;
- 6) iz tashuvchi bilan ta’sirlashishi, aloqasiga ko‘ra;
- 7) fizikaviy xususiyatlariga ko‘ra;
- 8) boshqa asoslar bo‘yicha.

Mikroobyektlar moddiy mavjudlik shakliga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) mikrozarralar (biror buyum yoki obyektning mayda zarrachalari);
- 2) mikroizlar (izlarni qidirishda ularning mayda qismchalarining topilishi);

3) mikro iz-moddalar (qon tomchilari, avtomashina moylari va bosh-qa shunga o‘xshash moddalarning kichik qismlari).

Mikroobyektlar ko‘rinish darajasiga ko‘ra, xira ko‘rinuvchan va ko‘rinmas bo‘ladi.

Mustahkamligiga ko‘ra mikroobyektlarni mustahkam shaklga ega va mustahkam shaklga ega bo‘lmagan turlarga ajratish mumkin. Mustah-kam shaklga ega bo‘lmagan mikroobyektlarga turli kukunlar, suyuqlik-larning tomchilari kiradi.

Kelib chiqish manbaiga ko‘ra mikroobyektlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) tabiiy kelib chiqishga oid;
- 2) kelib chiqishi sun‘iy, ma‘lum ishlovlar berish natijasidagi mikroobyektlar.

Kelib chiqishi tabiiy bo‘lgan mikroobyektlarni quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1) odam organizmidan kelib chiqqan mikroobyektlar (soch tolasi, tish sinig‘i, teri qismchasi, tirnoq zarrasi, sperma va boshqa ajratmalarning qoldig‘i va boshqalar);

2) hayvonlarning mikroobyektlari (hayvonlar juni tolachalari, teri bo‘lakchalari va boshqalar);

3) o‘simliklarning mikroobyektlari (urug‘lar, o‘tlarning bo‘lakchalari, yog‘och zarralari, o‘simlik ildizi yoki bargi zarralari);

4) kelib chiqishi mineral mikroobyektlar (tuproq zarralari, neft mahsulotlari zarralari va boshqalar).

Mikroobyektlarning ikkinchi guruhini sun‘iy ishlab chiqilgan mahsulotlarning mikroobektlari tashkil etadi, ularni quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1) noorganik tarkibli mikroozarralar (oyna zarralari, keramika, qurilish materiallar va boshqalar);

2) organik tarkibli mikroozarralar (arqon, ip bo‘lakchalari, qog‘oz, yog‘och bo‘lakchalari va boshqalar);

3) aralash tarkibli zarralar (lak-bo‘yoq mahsulotlari, kombinatsiyali iplar matolarining bo‘lakchalari va boshqalar).

Guruhiy tegishlilikka ajratish mikroobyektlarning hodisa joyidagi dastlabki tadqiqoti va keyinchalik ekspert tadqiqotini belgilashda katta ahamiyatga ega. Materialshunoslikda obyektlarning turiga ko‘ra ekspert tadqiqotlari quyidagicha ajratiladi:

- 1) tolali mahsulotlarning ekspertizasi;
- 2) lak-bo‘yoq mahsulotlarining ekspertizasi;
- 3) neft va yoqilg‘i-moylash mahsulotlarining ekspertizasi;
- 4) oyna mahsulotlarining ekspertizasi;
- 5) metall va ularning mahsulotlari ekspertizasi;
- 6) polimer, plastmassa, rezina mahsulotlarining ekspertizasi;
- 7) spirtli ichimliklar ekspertizasi;
- 8) narkotik va psixotrop moddalarning ekspertizasi;
- 9) parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarining ekspertizasi.

Iz tashuvchi bilan ta'sir aloqasiga ko'ra, mikroobyektlarni *sirtiga tushgan* va *ichga kirgan* turlarga ajratish mumkin. Sirtiga tushgan holatda iz qabul qiluvchi va mikroobyekt turli ta'sirlar natijasida o'zaro aloqada bo'lishi mumkin. Ichga kirgan holatda mikroobyekt iz qabul qiluvchining tarkibida bo'ladi (masalan, bo'yoqning matoga tushishi).

Fizikaviy xossalariga ko'ra, mikroobyektlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- 1) qattiq, suyuq va gaz holatdagi;
- 2) magnit xususiyatiga ega va ega emas;
- 3) tok o'tkazuvchi, dielektrik va boshqalar.

Boshqa asoslarga ko'ra mikroobyektlar quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

- 1) jinoyatchidan qoldirilgan mikroobyekt;
- 2) jabrlanuvchiga tegishli;
- 3) jinoyat quroliga tegishli;
- 4) transport vositasining mikroobyekti;
- 5) poyabzalning mikroobyekti va boshqalar.

Mikroobyektlarning kriminalistik ahamiyati. Hodisa sodir bo'lgan joydagi moddiy sharoit va jabrlanuvchi (jinoyatchi)larning kiyimlaridagi mikroobyektlarning lokallashishi (mavjudligi va joylashishi) sodir etilgan jinoyatning mexanizmini qayta tiklashga imkon beradi.

Mikroobyektlarning guruhviy mansubligini aniqlash, shuningdek, obyektning undan ajralib ketgan mikrozarra xususlari bo'yicha identifikatsiya qilish quyidagilarga imkon berishi mumkin:

a) hali noma'lum hodisa sodir bo'lgan joyning taxminan aniqlashga (gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning kiyimi yoki poyabzalidagi hodisa joyiga xos bo'lgan mikrozarra xususlari (o'simlik, urug', tuproq zarrachalari va h.k.) bo'yicha;

b) muayyan shaxsni hodisa sodir bo'lgan joyda bo'lganligini aniqlashga (yuqoridagi belgilarga ko'ra, shuningdek, bu shaxsning kiyimi yoki poyabzalidan ajralib tushib qolgan mikroobyektlar bo'yicha);

v) jinoyatchining hodisa sodir bo'lgan joyga kelgan yoki ketgan yo'lini aniqlashga (shaxs kiyimining joydagi turli obyekt (shox, turtib chiquvchi qirralari, buyumlar va h.k.)larda ilinib qolgan mikroto'lalari yoki poyabzalidan tushib qolgan ifloslanishlar bo'yicha);

g) tekshirilayotgan jinoyat hodisasining muayyan buyum (qurol) yordamida amalga oshirilganligini aniqlashga (masalan, sovuq qurolidagi jabrlanuvchining jarohatlangan a'zolarining hujayralari, kiyimining mikro-

tolalari yoki aksincha, jabrlanuvchining tanasi (kiyimi)da ishlatilgan buyum (qurol)ga xos mikroobyektlarning aniqlashiga ko'ra);

d) jinoyat sodir etish qurolining muayyan shaxsda bo'lganligini aniqlashga (ushbu obyektida jinoyatchining kiyimlari yoki cho'ntagidagi narsalarga xos mikroobyektlari aniqlanganda);

e) jabrlanuvchiga shikast etkazgan transport vositasini aniqlashga;

j) kiyimi yoki cho'ntaklarida, kasbiy yoki havaskorlik faoliyatini bildiruvchi mikroobyektlar aniqlanganda, shaxsi noma'lum murdaning shaxsini aniqlashga;

z) jinoyatchi kiyimlarining belgilari (kiyimdan ajralib qolgan mikroobyektlarning turi, ko'rinishi, guruhi bo'yicha);

i) kiyim predmetlarining o'zaro ta'sirlashganligini (o'zaro bir-biriga o'tib qolgan mikroobyektlar bo'yicha);

Yuqoridagilardan tashqari, hodisa sodir bo'lgan joyda yoki jinoyatchilar (jabrlanuvchilar)ning kiyimlarida mikroobyektlar majmuining lokallashishi va tabiatini aniqlash ularning ko'rsatuvlarining to'g'riligini tekshirishga ham imkon beradi.

2-§. HODISA SODIR BO‘LGAN JOYDA MIKROOBYEKTЛАRNI ANIQLASH VA OLIШ

Hodisa joyini ko‘zdan kechirishda mikroobyektlarni aniqlash maqsadida dastlab ularning joylashishi mumkin bo‘lgan joylarni bilish zarur. Mikroobyektlarni qidirish ko‘rilayotgan jinoya ishining mohiyati va shart-sharoitlari hamda hodisa joyidagi obyektlarning xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirilishi kerak.

Mikroobyektlarni qidirib topishni ikki turga ajratish mumkin:

- a) vizual qidirib topish;
- b) fizikaviy va kimyoviy metodlar orqali qidirib topish.

Mikroobyektlarni vizual usulda qidirishda tabiiy yorug‘likdan foydalanib, o‘tuvchi nurlar, turli lupalar yordamida, mikroskop ostida qidirish amalga oshiriladi.

Mikroobyektlarni fizikaviy va kimyoviy metodlar yordamida qidirishda esa, turli texnik vosita va metodlardan foydalaniladi. Fizikaviy metodlarga turli yorug‘lik manbalari va filtrlar orqali, ultrabinafsha va infraqizil nurlarda mikroobyektlarni qidirish kabilar kiradi. Kimyoviy usulga turli moddalarni ishlatib, kimyoviy tahlil o‘tkazish orqali mikroobyektlarni aniqlash kiradi.

Mikroobyektlarni qidirishda quyidagilarni e‘tiborga olish zarur:

1) hodisa joyida mikroobyektlarning yo‘qolib ketmasligi va ularning saqlanib qolishi choralarini ko‘rish;

2) sodir bo‘lgan hodisa holatidan kelib chiqqan holda, mikroobyektlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylarda, jinoyatchining kirgan, chiqib ketgan va turli harakatlarni bajargan joylarida qidiruv olib borish hamda keyinchalik jinoyatchida, uning tana qismlari va kiyimlarida qolishi mumkin bo‘lgan mikroobyektlarning turini aniqlashga alohida ahamiyat berish;

3) imkon boricha yorug‘lik manbaining optimal variantini qo‘llashni amalga oshirish, u quyidagilarni:

– yorug‘lik filtrlari, mikroobyekt va iz tashuvchi orasidagi rang kontrastini kuchaytirish imkoniyatini beradi;

– ultrabinafsha yoritgichi qorong‘ilashtirilgan joyda lyuminessensiya-lanuvchi mikrozararlarni nolyuminessent fonda va aksincha bo‘lgan holatlarda mikroobyektlarni aniqlash imkoniyatini beradi;

– elektron-optik o‘zgartirgich mikrozararlarning infraqizil nurlarni yutishi va qaytarishi hisobidan ularni aniqlash imkoniyatini beradi;

– lupa va mikroskop obyektlarni kattalashtirib ko‘rib, ularni aniqlash imkoniyatini beradi;

– magnit yordamida magnit xususiyatga ega zarralarni topish imkoniyatini beradi;

– changyutgichni ishlatish chiqishi qiyin bo‘lgan joylardan mikro-zarralarni tortib olish imkoniyatini beradi.

Mikroobyektlarni qidirishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

– barcha obyektlar dastlab topilgan joyidan qo‘zg‘atilmasdan tekshiriladi;

– obyektlarni ko‘chirishda ularning tagiga toza qog‘oz qo‘yilishi kerak;

– ishlayotganda diqqat-e’tibor bilan rezina qo‘lqoplarda ishlash kerak;

– obyektlarni bir-biriga tegib ketishidan saqlash kerak;

– iz tashuvchidan olingan mikroobyektlar keyinchalik ekspert tadqiqoti uchun tegishli tartibda saqlanishi kerak;

– noqulay sharoitlarda iz tashuvchilar olinadi va keyinchalik ko‘zdan kechirish uchun saqlanadi.

Mikroobyektlarni qidirish ikki bosqichli harakatdir. Birinchi bosqichda mikroobyektlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan obyekt aniqlanadi, so‘ng mikroobyektlarning o‘zini qidirishga kirishiladi. Ikkinchi bosqich harakatlari ayrim holatlarda laboratoriyada olib boriladi. Ko‘pgina jinoyatlarning sodir etilishida (qotillik, nomusga tegish, tan jarohatlari etkazish va shu kabilar) jinoyatchi bilan jabrlanuvchi bevosita aloqada bo‘ladi va natijada mikrozarralarning bir obyektidan ikkinchi obyektga o‘tishi sodir bo‘ladi. Shuningdek, jinoyatchilar o‘zlarining maqsadlarini amalga oshirishda turli buyumlar, uskunalardan foydalanadilar va ular bevosita mikroobyektlarning tashuvchisi bo‘lib qoladi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, bunday iz tashuvchilar sifatida ko‘proq quyidagilar ko‘zga tashlanadi:

– odam tanasi, kiyimlari va poyabzali (jinoyatchiniki va jabrlanuvchinikida ham);

– pichoqlar, sovuq qurollar va o‘qotar qurollar;

– buzish qurollari va uskunalari;

– kontaktli jarohatga ega obyektlar;

– er hududlari, yo‘l, pol va obyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi joylari;

– transport vositalari.

Mikroobyektlar haraktlanuvchi buyum-tashuvchilar (kiyimlar, poyabzal, qurol, transport vositasi va h.k.)ning sirtida, shuningdek, qo‘zg‘almas buyum-tashuvchilar (mebel, bino, turli inshootlar, joy sahni va h.k.)ning sirtida joylashishi mumkin.

Mikroobyektlarning juda kichik o‘lchamlarini inobatga olib, «mikroobyektlarni qidirish» deganda bevosita bunday obyektlarni izlash bilan

birga, mikroobyektlar saqlanishib qolishi, oʻrnashib qolishi) mumkin boʻlgan buyumlarni aniqlashni ham tushunish kerak.

Mikroobyektlar va ular boʻlishi mumkin buyumlarni qidirish koʻzdan kechirishning dastlabki bosqichlaridayoq boshlanishi lozim. Mikroobyektlar buyum-tashuvchilarning sirtida mustahkam joylashmasligini hisobga olib, hodisa joyida havoning sezilarli harakati (shamol va shu kabilar), buyumlar, murdalarni maqsadsiz siljitish yoki harakatlantirishdan ehtiyot boʻlish lozim. Ochiq maydonlarda buyum-tashuvchilar atmosfera omillari (yomgʻir, qor, shamol kabi)dan saqlangan boʻlishi kerak.

Hodisa sodir boʻlgan joyda joy va undagi buyumlarga bu tergov harakatining ishtirokchilaridan begona mikroobyektlar tushib qolishining oldini olish lozim, shuning uchun divan yoki stulga oʻtirish, ularga kiyimlarni qoʻyish, jabrlanuvchining kiyimlari bilan taʼsirlashish mumkin emas. Oson ajraladigan mikrotolalar manbalar (sharf, mexli roʻmol va h.k.)ni hodisa joyidan uzoqroqqa olib qoʻyish, tergov harakatining poyabzalarida begona ifloslanishlar boʻlmasligi kerak. Mikroobyektlarni qidirish jarayoni boshlanishini to yakunlagunicha ishtirokchilarga chekish qatʼiyan taqiqlanadi. Bu jarayonda toza xalat va rezina qoʻlqoplardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mikroobyektlarning lokallashishi (mavjudligi va joylashishi) oʻzgarib ketishining oldini olish maqsadida, ishtirokchilar bilan buyumlar, mikroobyektlarning tashuvchilari boʻlgan va hodisa joyida alohida joylashgan buyumlarning oʻzaro taʼsirlashmasligi choralari koʻrish zarur boʻladi.

Jinoyat sodir etish qurolini qoʻshimcha taʼsirlardan saqlash, yaʼni koʻzdan kechirish jarayonida va undan keyin iflos qoʻllar bilan ushlab, boshqa buyumlarning ustiga qoʻyish, turli matolar va elimlanish darajasi past boʻlgan qogʻozga oʻrash, ular bilan turli keraksiz harakatlarni bajarish taqiqlanadi.

Hodisa sodir boʻlgan joyda mikroobyektlar kerakli yorugʻlik ostida qidirilishi lozim. Buning uchun, odatda, koʻchma yorugʻlik manbalari ishlatiladi. Ultrabinafsha nurlarda lyuminssensiyalanadigan mikroobyektlar avtonom manbali ultrabinafsha chiroqlar yordamida aniqlanadi.

Koʻmir tarkibli ayrim mikroobyektlar infraqizil nurlarni yaxshi yutadi va shu bois, elektron-optik oʻzgartirgich (EOP) taʼsirida toʻq rangda koʻrinadi. Masalan, yonmagan porox zarrachalari, protektor rezinasining zarrachalari kabilar shu tarzda aniqlanadi. Elektron-optik oʻzgartirgich (EOP) taʼsirida koʻrinadigan mikroobyektlarni yaxshiroq yoritish talab etiladi.

Hodisa sodir boʻlgan joyda murda aniqlangan boʻlsa, uni koʻzdan kechirishda unga va kiyimlariga turli mikroobyektlarni tushib qolishidan

ehtiyot bo'lish lozim. Murdani zaruratsiz siljitish, unga turli ta'sirlar ko'rsatish, tolalari tez ajraladigan gazlamalar bilan yopish mumkin emas. Murdani kiyimlaridan, o'zining xususiyatlari (ko'rinishi, rangi)ga ko'ra uning kiyimlaridan farq qiladigan tolalarni izlash; tugmalar, «molniya», turli ilmoqlar va to'qalarga alohida etibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki, aynan shu kabi kiyim predmetlarida begona tolalar, soch va boshqa mikrozarrachalar joylashishi mumkin. Murdani kiyimi va poyabzalida murda aniqlangan joyga xos bo'lmagan mikroobyekt (o'simlik, tuproq qoldiqlari va h.k.)lar aniqlanganda, bu jabrlanuvchining boshqa joyda o'ldirilganligidan dalolat berishi mumkin.

Agar jinoyat o'qotar qurol ishlatib sodir etilgan bo'lsa, yaqin masofadan o'q otilganda, murdani kiyimidagi jarohat (o'q kirish teshigi) atrofida yonmagan yoki chala yongan porox zarrachalari aniqlanishi mumkin. Jabrlanuvchi jinoyatchiga qarshilik ko'rsatgan bo'lsa, uning tirnog'i ostida soch, jinoyatchi kiyimining mikrotolalari, teri qoldiqlari yoki qon zarralari aniqlanishi mumkin. Bunday mikroobyektar jinoyatchining tirnog'i ostida ham bo'ladi. Murdani tugilgan mushti barmoqlari oq silliq qog'oz ustida yoziladi (ochiladi) va unga mavjud mikroobyektar to'kib olinadi.

Agar murda ochiq maydonda va nomusga tegish jinoyatiga xos holatda aniqlangan bo'lsa, murdani atrofida joylashgan er maydoni yoki tuproq tekshirilishi lozim. Bunda jinoyatchining poyabzali, tizzasasi yoki tirsagining izlari aniqlanishi mumkin. Bunday joylardan gumon qilinuvchining kiyimlarida aniqlangan mikroobyektlar bilan solishtirish uchun tuproq namunasi olinishi kerak.

Ochiq maydonda sodir etilgan nomusga tegish jinoyatini tekshirishda jinoyatchining kiyimiga xos mikroobyektlar, hodisa joyidagi o'simlik shoxlari, butalar, o't, daraxt tanasi (po'stlog'i) kabilarda qolishi mumkin. Jabrlanuvchining yoki jinoyatchining kiyimida hodisa sodir bo'lgan joyga xos bo'lmagan o'simlik qoldiqlari (mikroobyektlar)ning aniqlanishi nomusga tegish boshqa joyda sodir etilganidan dalolat berishi mumkin.

Juda ko'p hollarda mikroobyektlarning tashuvchisi bo'lib jabrlanuvchiga jarhat etkazishda ishlatilgan sovuq qurol hisoblanadi. Urrib-majaqlovchi sovuq qurol (kastet, nunchaku va h.k.)larda qondan tashqari, odam tanasi a'zolari, suyak qoldiqlari hamda ularda yopishib qolgan soch, qum, o'simlik va boshqa turdagi mikroobyektlar aniqlanishi mumkin.

Agar o'qotar qurol yoki sovuq qurol birmuncha vaqt jinoyatchining cho'ntaklarida saqlangan bo'lsa, ularda jinoyatchi cho'ntagidagi narsa va buyumlarga tegishli mikroobyektlar ham aniqlanishi mumkin.

Jinoyatchining kiyimiga xos mikroobyektlarni jinoyatchi o'tgan turli to'siqlar, tor joylar, tekshiklar kabi joylardan hamda o'tkir va ilmoqli obyektlar (mix, singan eshiklar, daraxt yoki o'simlik shoxlari), shuningdek jinoyatchini keskin harakat qilishga majbur qilishi mumkin bo'lgan joylardan izlash tavsiya etiladi.

Avtohalokatlar yuz berganda jabrlanuvchining kiyimi va yo'lning qatnov qismida avtomobilning lok-bo'yoq qoplamasi zarrachalari, yoritkich farasi shishasining parchalari, g'ildiragi va boshqa qismlaridan tushib qolgan ifloslanishlar yoki boshqa mikroobyektlar aniqlanishi mumkin. Transport vositalari lok-bo'yoq qoplamasi yuqori qatlamining mikrozarrachalari yaltiroq va tekis sirti bilan ajralib turadi. Bu qoplamaning pastki sirti esa g'adir-budur bo'ladi.

Bu kabi hodisa joylarini ko'zdan kechirishda, agar yo'l-transport hodisasining mexanizmi bo'yicha tasmollar mavjud bo'lsa, birinchi navbatda transport vositasining jabrlanuvchining kiyimi bilan ta'sirlashgan qismlari ko'zdan kechiriladi. Hodisa mexanizmi noma'lum bo'lsa, birinchi navbatda, mikroobyektlar taxminiy lokallashgan joylar, ya'ni avtomobil lok-bo'yoq qoplamasining ezilgan, yorilgan va shilingan sohalari, ifloslanganishlar tozalangan sohalari va kuzovdagi yog'och qipiqlari mavjud sohalari ko'zdan kechirilishi lozim. Transport vositasining yurish qismi ham birinchilardan bo'lib tekshiriladi.

Yo'l-transport hodisasi sodir etilganida transport vositasini tekshirishda unda mavjud mikroobyektlar yo'qolib ketmasligi uchun, imkoni boricha, avtomobilni darhol toza va quruq joy (bino, garaj va h.k.)ga joylashtirish va ko'zdan kechirish yakunlangunga qadar ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash, tozalash va yuvishni taqiqlash kerak.

Portlash bilan bog'liq hodisa joylarini ko'zdan kechirishda, avvalo portlatish qurilmasining tarkibiy qismi bo'lgan mikroobyektlarni aniqlashga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Agar portlatish olov yordamida (portlatish qurilmasi olov o'tkazgich sim portlatilgan) amalga oshirilgan bo'lsa, fitil, olov-o'tkazgich sim, yongan gugurt donalari kabilarni izlash tavsiya etiladi. Portlash elektr toki yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, hodisa joyida elektr simi va boshqa qismlar (kontakt apparati, soat mexanizmi va boshqalarning qoldiqlari aniqlanishi mumkin. O'zaro payvandlangan qismlarning qoldiqlarida payvandlash izlari va kanifol yoki qo'rg'oshin mikrozarrachalar qolishi mumkin.

Kichik hajmli tashuvchi-obyektlar (poyabzal, kiyim, qurol yoki turli asbob-uskunalar)ni stol ustida, ularning har birini alohida oq qog'oz ustiga joylashtirib, navbat bilan tekshirish tavsiya etiladi. Har bir buyum-

da aniqlangan mikroobyektlar koʻzdan kechiriladi, koʻzdan kechirish tergov harakatining bayonnomasida taʼriflab yoziladi va alohida oʻrab-joylashtiriladi. Turli buyumlar yoki turli joylardan olingan buyumlardagi mikroobyektlarni aralashtirib yuborish mumkin emas.

Koʻzdan kechirishda aniqlangan buyumlarni, ayniqsa, tolali materiallar (kiyim, arqon va iplar, gazlamalar)ni silkitish va qoʻshimcha tarzda buk-lash mumkin emas. Engil obyekt-tashuvchilarni pinset bilan oq qogʻoz ustida ushlab va koʻzdan kechirish tavsiya etiladi, ogʻir buyumlar ham oq qogʻoz ustida tekshirilishi lozim. Buyumlarni agʻdarib tekshirishda esa boshqa qogʻozni ishlatish kerak.

Koʻzdan kechirishdan soʻng obyekt-tashuvchilarni oʻrab-joylashti-rish, ishlatilgan pinsetlarni tozalash kerak.

Mikroobyektlarni qayd etish. Mikroobyektlar fotosuratga olish koʻzdan kechirish bayonnomasida taʼriflash va joylashgan joyini chiz-mada aks ettirish bilan qayd etiladi.

Mikroobyektlarning kichik oʻlchamlarini inobatga olib, ularni hodisa sodir boʻlgan joyda fotosuratga olish mushkul vazifa. Shu bois, mikroobyektlarni tashuvchi obyektlar sud fotografiyasi qoidalari asosida suratga olinadi. Dastlab mikroobyektlarni tashuvchi obyektning atrofdagi buyumlar bilan bogʻlovchi fotosurat, keyin mikroobyektlar strelkalar bilan koʻrsatilgan detalli fotosurat olinadi.

Hodisa sodir boʻlgan joyini koʻzdan kechirish bayonnomasida quyidagilar bayon qilinadi:

a) obyekt tashuvchining xususiyatlari: uning joylashgan joyi, turi va koʻrinishi, moʻljallangan maqsadi, bu buyumni boshqalardan farqlash imkonini beradigan belgilar majmui. Obyekt-tashuvchining rangi «KOTS-A (kriminalistik rang aniqlash)» qurilmasi yordamida aniqlanadi;

b) har bir mikroobyektning obyekt-tashuvchida birorta qoʻzgʻalmas yoki qatʼiy orientirga bogʻlangan holdagi joylashgan joyi;

v) mikroobyektlarning xususiyatlari: yagona yoki yigʻindi holdaligi, turi va koʻrinishi, rangi, tabiati, agar imkon boʻlsa konfiguratsiyasi va oʻlchamlari, aniqlanish usuli. Mikroobyektlarning shaklini aniqlash uchun quyidagicha atamalardan foydalanish tavsiya etiladi: «tolasimon», «chang-simon», «qirinchi koʻrinishida», «oʻsimlik qoldiqlari», «soch tolasiga oʻxshash», «noaniq shaklda» va h.k.;

g) mikroobyektlarni olish va oʻrab-joylashtirish usullari.

Mikroobyektlarni olish. Mikroobyektlar obyekt-tashuvchi bilan birga olinadi. Mikroobyektlar quyidagi hollarda alohida olinishi mumkin:

a) agar mikroobyekt aniq koʻrinsa va obyekt-tashuvchida erkin joy-lashgan boʻlsa hamda ularni obyekt-tashuvchi bilan birga olishning

imkon bo'lmasa (poldagi metall qirindilar, murda tanasidagi soch tolalari, yo'ning qatnov qismidagi shisha parchalari va h.k.);

b) aniqlangan mikroobyektlar obyekt-tashuvchida mustahkam saqlanmagan va buyumlarni transportirovka qilishda mikroobyektlarning yo'qolib ketishi yoki o'z xususiyatlarini yo'qotishi xavfi bo'lsa;

v) mikroobyektlarni tashuvchi obyektning hajmi katta va ularni transportirovka qilish maqsadga muvofiq bo'lmasa yoki ularni transportirovka qilish obyekt-tashuvchilarning o'zgarishi (sinishi, buzilishi, o'z qimmatini yo'qotishi)ga sabab bo'lsa;

g) mikroobyektlar pichoq, skalpel, pinset, nina kabilar vositasida, murdaning kafti yoki qo'llaridan esa yopishqoq lenta yordamida olinadi;

d) agar mikroobyektlar ko'p miqdorda bo'lsa, iz tashuvchi bilan birga olinadi yoki mutaxassis yordamida ularning ichidan olinadigani tanlanadi.

Tirnoq ostidagi mikroobyektlar yog'och yoki plastmassadan tayyorlangan maxsus kichik hajmli kurakcha yordamida qirib olinadi. Quloq suprasi yoki burundagi mikroobyektlar distillangan suv bilan namlangan paxta tampon (gugurt donasiga o'ralgan) yordamida olinadi. Begona soch tolalari tishlari uchiga namlangan paxta o'ralgan taroq bilan tarab olinadi.

Hozirgi kunda mikroobyektlarni magnitli daktiloskopik kistochka bilan ham olish qo'llaniladi.

Mikroobyektlarni o'rab-joylashtirish. Asosiy qoidalar:

1) har bir obyekt-tashuvchi alohida va ko'zdan kechirishda ishlatilgan qog'oziga o'raladi. Nam obyekt-tashuvchilar quritilishi lozim;

2) kiyim predmetlari ikkita qog'oz orasiga joylashtirib o'raladi va paketga solinadi;

3) buyumlarni o'rab-joylashtirish uchun to'qimachilik matolari, doka, paxta, yaxshi elimlanmagan qog'oz kabi materiallardan foydalanish tavsiya etilmaydi;

4) sovuq qurollar, o'qotar qurollar, turli asbob-uskunalar, shisha parchalari, yog'och bo'laklari, shisha idishlar xuddi barmoq izlari aniqlangan obyektlar kabi o'rab joylashtiriladi;

5) alohida mikroobyektlarni toza yuvilgan va og'zi yaxshi berkiladigan shisha idishga joylashtirish tavsiya etiladi;

6) tirnoqlar ostidan, quloq supralari va burun hamda boshqa tana a'zolaridan olingan mikroobyektlar alohida o'rab joylashtiriladi va raqamlanadi;

7) har bir o'ram ip bilan bog'lanadi va ularga tegishli yozuvlar yoziladi;

8) agar qulay bo'lsa bir nechta o'ram (quti)larni birgalikda transportirovka qilish mumkin.

3-§. MIKROOBYEKTЛАRNING DАSTLАBKІ TАDQIQOTLARI METODIKASINING O‘ZIGА XOS XUSUSIYATLARI

Mikroobyektlardan jinoyatlarni ochish va tergov qilishda foydalanish bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi. Bu bosqichlar mikroobyektlarni aniqlash, qayd etish, olish, dastlabki tadqiqotlar va ekspertiza tekshiruvlarini qamrab oladi.

Mikroobyektlar tadqiqotlariga oid maxsus adabiyotlarning tahlili ushbu tadqiqot va tekshiruvlarning quyidagicha ro‘yxatini ajratishga imkon beradi:

- hodisa sodir bo‘lgan joydan jinoyat izlarini aniqlash;
- hali ashyoviy dalil maqomiga ega bo‘lmagan, ammo keyinchalik (muayyan protsesual shartlar bajarilishi bilan) ashyoviy dalil hisoblanishi mumkin bo‘lgan obyektlarni o‘rganish;
- jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan oldin o‘tkaziladigan dastlabki tadqiqotlar, ularning natijasida kelgusi harakatlar – jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki uni qo‘zg‘atishni rad qilish amalga oshiriladi;
- tegishli dalillarni izlash va aniqlashga oid vosita va metodlarni aniqlash va qo‘llash;
- jinoyatchilar va boshqa obyektlar (jinoyatchining kiyimi, jinoyat sodir etish quroli, turli asbob-uskunalar va boshqalar)ni qidirish maqsadida kerakli ma’lumotlarni olish;
- jinoyatni sodir etish usuli va jinoyatchining shaxsi haqida yo‘naltiruvchi ma’lumotlarni olish;
- tegishli tergov tasmollarini ilgari surish va ularni tekshirish;
- aniqlab olingan obyektlarni kelgusi ekspertiza tekshiruvlarini o‘tkazish uchun yaroqliligini aniqlash;
- aniqlangan izlarni tekshirilayotgan jinoyat hodisasiga aloqasi va bog‘liqliligini aniqlash haqidagi masalalani hal etish;
- tayinlanishi lozim bo‘lgan ekspertizalar turlarini va tadqiqotlar uchun zarur namunalar, jumladan, mikroobyektlarning turini aniqlash;
- tegishli ekspert-kriminalistik, jumladan, mikro-obyektlarning kriminalistik hisoblaridan foydalanish va h.k.

Yuqoridagi vazifalardan va O‘zbekiston Respublikasi sud ekspertiza muassasalarining zamonaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlarini quyidagi ikki umumiy guruhga birlashtirish mumkin:

- 1) hodisa sodir bo‘lgan joyda o‘tkaziladigan dastlabki tadqiqotlar;
- 2) sud-ekspertiza muassasalarining laboratoriyalarida o‘tkaziladigan dastlabki tadqiqotlar.

Mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlari o'ziga quyidagilarni qamrab oladi:

birinchidan, tekshirilayotgan obyektning turli xossa va xususiyatlari bo'yicha kerakli ma'lumotlar olish imkonini beradigan tadqiqot metodlari va usullarining majmuini qo'llash;

ikkinchidan, tekshirilayotgan obyektlarning xususiyatlarini tahlil qilish asosida muayyan bir holat bo'yicha fikr yuritish (buning uchun esa maxsus bilimlar talab etiladi).

Ma'lumki, bunday tadqiqotlar maxsus jihozlangan laboratoriya va ilmiy-tadqiqot muassasalarida maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi.

Mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlarining yuqorida ta'kidlangan ikki turi ularni o'tkazish subyektlarini aniqlab beradi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish va boshqa tergov harakatlari maxsus bilimga ega mutaxassis-kriminalistlarning ishtirok etishini talab etadi. Bu maxsus bilimlar izlar bilan ishlash va an'anaviy kriminalistik ekspertizalarga oid bo'lishi zarur.

Ta'kidlash joizki, an'anaviy kriminalistik ekspertizalar bo'yicha mutaxassislarda turli materiallar, mahsulotlar va buyumlar, jumladan mikroobyektlar kabi obyektlarning ekspertizalarini o'tkazish uchun ular-da maxsus ruxsatnoma va hatto amaliy tajriba ham bo'lmasligi mumkin. Bu mutaxassis-kriminalistlar tergov harakatlari bilan birga tezkor-qidiruv tadbirlarida ham ishtirok etadilar. Materiallar, mahsulotlar va buyumlar, jumladan mikroobyektlar ekspertizalarini o'tkazish huquqiga ega ekspertlar (xodimlar) esa tergov harakatlariga juda kam hollarda jalb etiladilar. Shuning uchun tegishli tergov harakatlari yoki tezkor-qidiruv tadbirlarida mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlari IIV tizimidagi ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

Bu kabi tadqiqotlarni hodisa sodir bo'lgan joyda o'tkazishda zarur texnik-kriminalistik vositalar sifatida IIV Ekspert-kriminalistika xizmatida mavjud bo'lgan texnik-kriminalistik vositalarning eng qulay va ko'chma tarzda ishlatiladiganlarigina qo'llaniladi. Chunki, barcha mavjud texnik-kriminalistik vositalarni hodisa sodir bo'lgan joyga olib chiqishning imkoni yo'q, ular laboratoriya sharoitlarida ishlatishga mo'ljallangan. Hatto avtomobilga o'rnatilgan ko'chma kriminalistik laboratoriya (PKL) bazasida ham optik mikroskop, refraktometr, ultrabinafsha yoritgichlar hamda ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurshda IIVning boshqa sohaviy xizmatlari bilan amaliy hamkorligini ta'minlaydigan boshqa texnik vositalar mavjud bo'ladi.

Hodisa joyini koʻzdan kechirishda ishlatiladigan oddiy majmua esa ekspertning chemodani hisoblanadi.

Shu bois, ekspert-kriminalistning texnik taʼminoti va uning mikroobyektlar tadqiqotlari boʻyicha real bilimlarini hisobga olgan holda hodisa sodir boʻlgan joyda mikroobyektlar dastlabki tadqiqotlarining metodik jihatdan eng sodda turlarini oʻtkazish imkoni mavjud. Maxsus adabiyotlarda keltirilgan maʼlumotlar bilan ekspert-kriminalistlarning imkoniyatlarini solishtirgan holda mikroobyektlar dastlabki tadqiqotlarining ushbu jarayonda amalga oshirilishi mumkin boʻlgan turlarini koʻrib chiqamiz.

Birinchi navbatda, hodisa sodir boʻlgan joyda mikroobyektlarni aniqlash zarur. Buning uchun tekshirilayotgan hodisani toʻliq idrok etish va maqsadli qidiruvni amalga oshirish lozim. Taʼkidlash joizki, bu harakat mikroobyektlarni tashuvchi predmetlarning tadqiqoti hisoblanadi. Mikroobyektlarga ashyoviy dalil maqomini berish uchun ularning jinoyat hodisasiga aloqasini aniqlash lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, mikroobyektning sirti yoki hajmida yuz bergan oʻzgarishlarni aniqlash lozim. Bu oʻzgarishlar jinoyat hodisasi natijasida roʻy bergan boʻlishi va jinoyat hodisasi bilan sababiy bogʻliqlikda boʻlishi lozim (masalan, agar koʻrilayotgan jinoyat ishi yonish jarayoni bilan bogʻliq boʻlsa, aniqlangan mikroobyektdagi termik taʼsir izlari yoki uning sirtining ifloslanishi va h.k.). Mikroobyektning jinoyat hodisasiga bogʻliqligi hodisa joyini kompleks oʻrganish va mikroobyektning boshqa izlar bilan aloqasi mavjudligini tekshirish natijasida aniqlanadi.

Mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlari faqatgina hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishda emas, balki mikroobyektlar aniqlanishi mumkin boʻlgan boshqa tergov harakatlari – tintuv, tergov eksperimenti va koʻrsatuvlarni hodisa joyida tekshirish kabilarda ham oʻtkazilishi mumkin. Masalan, koʻrsatuvlarni hodisa joyida tekshirish jarayonida mikroobyektlarning aniqlanishi gumon qilinuvchining koʻrsatuvlarini toʻgʻriligini tasdiqlashi mumkin.

Mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlarini oʻtkazish boʻyicha maxsus adabiyotlarda berilgan tavsiyalarning eng koʻpchiligini tekshirilayotgan obyektning taqqoslash tadqiqotlari va ularning ruhiy mansubligini aniqlash boʻyicha tekshirishlarni oʻtkazish lozimligi hisoblanadi. Ekspert-kriminalistika xizmatida ushbu vazifani bajarish imkoniyati mavjud boʻlsa-da (chunki ekspert-kriminalist taqqoslash tadqiqotlarida obyektning guruhiy mansubligini ifodalovchi belgilari boʻyicha bilimlarga ega boʻladi), ushbu xizmatning texnik taʼminotini inobatga olgan holda birmuncha chegaralangan tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, bu kabi vazifalarni bajarishda an'anaviy kriminalistik ekspertizalarga ixtisoslashgan ekspert-kriminalistlardan ko'ra, materiallar, mahsulotlar va buyumlarning kimyoviy tadqiqotlarini o'tkazishga ixtisoslashgan mutaxassislar (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi)ning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlarini o'tkazish uchun ishlatiladigan texnik-kriminalistik vositalar. Kriminalistik texnik vosita va usullarning asosiy qismi ushbu obektlarning ekspertizasini bajarish jarayonida qo'llaniladi. Bu vositalar va usullarni uch guruhga bo'lish mumkin:

– mikroobyektlarning kimyoviy-fizikaviy va boshqa xossalarini o'rganishga imkon beradigan texnik vositalari va usullar;

– taqqoslash tadqiqotlarida obektlarning bir-biriga o'xshashlik yoki farq qiladigan xususiyatlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan texnik vositalari va usullar;

– ekspert tomonidan olingan natijalarni to'g'ri baholash uchun ishlatiladigan usullar va texnik vositalari.

Obyektlarning tashqi va ichki tuzulishini o'rganish optik va elektron mikroskopiya usullari yordamida amalga oshiriladi.

Morfologik tadqiqotlar makro, mikro, ultramikro darajasida olib boriladi.

Obyektlarning tarkibiy tahlili (element, izotopli, molekulyar, fazali, fraksion) yupqa qatlamli va gaz, suyuqlik xromotografiya, xromoto-mass-spektrometriya, element-spektral analiz, lazerli yoki rentgen mikro-spektral analizlari, atom absorpsion usullari yordamida o'tkaziladi.

Mikroobyektlarning tuzilishini (strukturasini) o'rganishda molekulyar analiz (ultrabinafsha va spektrning ko'rinadigan qismidagi spektrofotometriya usullari, infraqizil spektrometriya) va rentgenografiya va metallografiya usullari qo'llaniladi.

Analitik maqsadlar uchun ko'pincha keng tarqalgan ilmiy asbob-uskunalar, (spektrograf, spektrofotometr, xromotograf, xromoto mass-spektrometr, mikroskoplar, rentgen apparatlari, polyarograf, ishlatiladigan bo'lsa-da kriminalistik maqsadlar uchun (masalan, mikro zarracha, mikro bo'lakchalarni o'rganishda, obyektlarning ayrim xususiy xossalarini aniqlashda) maxsus apparatlar, mikrofotografik jihozlar qo'llaniladi.

Bu usul va texnik vositalardan tashqari material va moddalarning ayrim xossa va xususiyatlarini (masalan, termoelektrik xossasi, rangi, magnit singdiruvchanligi, shisha va minerallarning sindirish ko'rsatkichi, shishalarning optik bir jinsli emasligi, tolalarning nurni qutblantirishi va hokazo) o'rganish uchun maxsus texnik vositalari ham ishlatiladi.

4-§. MIKROOBYEKTAR BO‘YICHA EKSPERTIZALAR

Juda ko‘p hollarda mikroobyektlar kriminalistik va sud-biologik ekspertizalar doirasida tadqiq qilinadi. Ekspertizaning yangi turlari vujudga kelishi tergov va sud amaliyotida jinoiy ishlarning ayrim holatlarini, belgilaydigan ahamiyatli faktlarni aniqlash uchun maxsus bilimlar zarurati bilan bog‘liqdir. Masalan, amaliyot ehtiyojida kiyim-kechaklarning o‘zaro kontaktda bo‘lganlik faktini ularning yuzasidagi bir-biridan o‘tgan mikrotolalar orqali aniqlash zarurati tolalar, materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasini vujudga keltirdi. Bunday mikrotolalarning o‘ljaning va jinoyatchining kiyim-kechaklari kura-shish paytida bir-biri bilan kontaktda bo‘lishligi natijasida, transport vositasi yo‘lovchini bosib o‘tish jarayonida, o‘g‘rining devordagi yoki shipdagi (tomdagi) tor tirqichlardan o‘tayotganida hosil bo‘lishi tabiiydir. Ayrim kiyimlarni ushbu o‘tgan mikrotolalar orqali tanib olish, shuningdek, o‘sha obyektlarning o‘zaro kontaktda bo‘lganlik faktini aniqlash faqatgina kriminalistik tadqiqotlar yordamida, kriminalistikaning metodologik asoslariga tayangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Xuddi shu kabi, lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari ekspertizasi ham tergov va sud amaliyotidan, sodir qilingan jinoyatning ildizlarini o‘rganish kerakligi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda vujudga keladi. Masalan, transport vositasi yo‘lovchini urib yuborishi natijasida uning kiyimlarida har xil izlar (pachoqlanish, yirtilish va lok-bo‘yoqning mikrobo‘laklari) paydo bo‘lishi mumkin. Jinoyatchi oyna yoki eshikdan o‘tayotganda, yoki seyfni, qulfni buzayotganda ham, odatda, shu kabi izlar paydo bo‘ladi.

Predmetni tashqi ko‘rinishining xususiyatlari yoki undan ajralgan lok-bo‘yoq bo‘lakchalari bilan solishtirish, har xil izlar orqali ushbu predmetni boshqa predmetlar bilan o‘zaro kontaktda bo‘lganlik faktini aniqlash – bularning hammasi individuallikni kriminalistika uslubiyoti-niing prinsiplari va ko‘rsatmalari asosida anglashga kiradi. Xususan, mana shu misolda jinoiy ishning vaziyatini aniqlash, asosan, krimina-listik texnikaning trasologiya bo‘limining uslubiy ko‘rsatmalarini kompleks ravishda tatbiq qilishga asoslanadi.

Fan va texnikada qabul qilingan sinflanish bo‘yicha obyektlarni aniq bir ko‘pchilikka belgilash ularni ma‘lum bir turkumga taalluqliligini ko‘rsatadi. Masalan, tekshirilayotgan shisha bo‘lakchasi qaysi maqsadda ishlatishga mo‘ljallanganligi bo‘yicha nur o‘tkazuvchi texnik shishalar turiga (material turi aniqlangan) yoki avtomobil farasining nur

tarqatuvchi qismiga (mahsulotning turi aniqlangan) taalluqli ekanligi ko'rsatilgan.

Har xil obyektlar (tekstil mahsulotlari, lok-bo'yoq mahsulotlari, neft mahsulotlari, plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar va h.k.) bo'yicha retseptur-texnologik ko'rsatikichlarni o'rganish va ma'lum tartibda yig'ish, saqlash masalani echishga katta yordam beradi.

Mikroobyektlar ekspertizasining o'ziga xosligi ko'p jihatdan u hal qiladigan quyidagi savollarda o'z aksini topadi:

- ekspertizaga taqdim qilingan material, modda va mahsulotning nomi, kelib chiqish manbai va qanday maqsadga mo'ljallanganligi;

- obyekt-tashuvchida ma'lum bir turdagi material, modda yoki mahsulotning mikro bo'lakchalari bormi;

- tergovchi topgan materiallar (moddalar va mahsulotlarning mikro bo'lakchalari yoki mikroizlari) ma'lum turkumdagi obyektlar qatoriga kiradimi;

- ushbu materiallar, moddalar va mahsulotlar umumiy turkumga yoki guruhga taalluqlimi, agar shunday bo'lsa, qay biriga taalluqli;

- tadqiqotga yuborilgan obyektlar (materiallar, moddalar va mahsulotlarning mikro bo'lakchalari yoki mikro izlari) ish bo'yicha qidirilayotgan elementlarni identifikatsiya qilish uchun yaroqlimi, agar shunday bo'lsa ular qidirilayotgan butunlikning bir qismimi yoki bir xil manbaga egami;

- mikro bo'lakchalar va mikro izlarning paydo bo'lish mexanizmi qanday.

O'zining xilma-xil tabiatiga ega ekanligi (tolali va lok-bo'yoq materiallari, neft mahsulotlari, tuproq, shisha, metall va qotishmalar, o'simlik xom ashyosi va h.k.) va har xil maqsadlar uchun mo'ljallanganligidan qat'i nazar, mikroobyektlar ekspertisasi, kriminalistik texnika rivojlanishining yagona bir yo'nalishi bo'lib hisoblanadi.

5-§. SUD EKSPERTIZALARINI TAYINLASH VA O‘TKAZISH MASALALARI

O‘zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»¹gi qonunining qabul qilinishi sud protsessida turlicha sud ekspertizalarini tashkil qilish va o‘tkazishni huquqiy tartibga solishning yangi darajaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Ushbu qonun qabul qilingunga qadar odil sudlovda maxsus bilimlardan foydalanishning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Xo‘jalik-protsessual kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining tegishli moddalari, shuningdek idoraviy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil qilar edi. Ushbu me‘riy-huquqiy hujjatlar «ko‘p holatlarda, bir-birini takrorlar yoki ushbu sohada ayrim huquqiy munosabatlar oxirigacha tartibga solinmagan edi»². S.A.Smirnovaning ta‘kidlashicha, «turli vazirliklar qoshidagi ekspertiza muassasalarining ish faoliyati va faoliyatga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlaridagi mavjud ayrim farqlar tegishli ekspertizalarni o‘tkazishda zarur taktika va metodikalarni tanlashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi»³. Bu jihatdan, sud ekspertlik faoliyatini huquqiy tartibga solishda sud ekspertizasining asosiy tushunchalarini aniqlashdagi yagona tizimning yo‘qligi kabi muammolar uchrab turar, natijada sud ekspertizalarining barcha imkoniyatlaridan huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning amaliy faoliyatida samarali foydalanishda sohaga oid atamalar, tushunchalar va metodikalarni tizimlashtirilgan tarzda qo‘llashda bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelar edi.

«Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi sud ekspertlik faoliyatida shakllanadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga imkon yaratdi. Ushbu sohaga oid yagona me‘yoriy-huquqiy hujjatga bo‘lgan ehtiyoj ancha ilgari mavjud edi. Hali 1975-yildayoq sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonunning dastlabki loyihasi tayyorlangan⁴ va

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни / Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №22. – 173-м.

² *Хафизов Ш.Н.* О нормативно-правовом регулировании судебно-экспертной деятельности // Адвокат. – 2007. – № 5. – С.58-61.

³ *Смирнова С.А.* Судебная экспертиза на рубеже XXI века. Состояние, развитие, проблемы. – СПб, 2004. – С. 583.

⁴ *Орлова В.Ф.* Законодательная регламентация судебной экспертизы: состояние и пути совершенствования // Судебная экспертиза. – Москва, 2004. – № 1. – С. 12-14.

soha mutaxassislari – kriminalist-olimlar va amaliyot xodimlari sud-ekspertlik faoliyatini tartibga solish zarurati mavjudligini qayta-qayta ta’kidlaganlar. Shuning uchun 2010-yilda O‘zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunning ishlab chiqilishi va qabul qilinishida qonun ijodkorlari ulkan ishlarni amalga oshirganlar. «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Xo‘jalik-protsessual kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish zarurati yuzaga keldi. Shuning uchun, 2010-yilda O‘zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan, yuqorida sanab o‘tilgan kodekslarga «ekspert» tushunchasi, uning huquqiy maqomi, turli (birlamchi, takroriy, komissiyaviy, kompleks) ekspertizalarning mazmuni, ushbu ekspertizalarni o‘tkazish qoidalari va tashkil etish tartibi bo‘yicha «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi qonun asosida tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Ta’kidlash joizki, «Rossiya Federatsiyasining sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi «Rossiya Federatsiyasida davlat sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida»gi Federal qonunida sohaga oid maxsus atamalar yoki Jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan tashkiliy-boshqaruv munosabatlarini tartibga solishda bir qator qarama-qarshiliklar va tushunmovchiliklar uchrab turadi¹, O‘zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi qonunda esa bu kabi muammolar mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi qonunida ushbu sohaga oid asosiy tushunchalar (3-modda) yoritilgan, protsessual qonunchilikdagi ekspertiza muassasasi rahbarining (13-14-moddalar), ekspertiza muassasasining (12-modda) va ekspert (10-modda)ning maqomiga oid kamchiliklar to‘ldirilgan. Qonunda fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklariga rioya qilish (6-modda) masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu qonunning ahamiyati shundaki, qonunda sud-ekspertlik faoliyatidagi asosiy tushunchalar (3-modda), sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari (4-modda), sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish (25-modda), davlat sud-ekspertiza muassasalarining faoliyatini tashkiliy va ilmiy-uslubiy ta’minlash (26-modda) va

¹ *Тарасов А., Тарасов М. О коллизиях в нормативной регламентации судебно-экспертной деятельности по уголовным делам // Уголовный процесс. – М., 2008. – №1. – С.98-103.*

boshqa bir qator masalalarni odil sudlovning sohalaridan qat'i nazar, yagona tarzda tushunishga imkon yaratilgan.

Sud ekspertizasi jinoyatning barcha (subyektiv tomonidan boshqa) elementlariga tegishli bo'lgan holatlarni aniqlashga imkon beradigan dalillarning universal manbaidir. Hodisa sodir bo'lgan joydan aniqlab olingan izlar, jinoyat hodisasiga tegishli bo'lgan ashyoviy dalillar va boshqa obyektlarning ekspertiza tadqiqotlari jinoiy tajovuz obyekti, etkazilgan zararining tabiati va miqdori, jinoyatning sodir etilish vaqti, joyi va jinoyatning sodir etilish mexanizmi, jinoyatchining shaxsi, shuningdek jinoyatning sodir etilishiga engillik yaratgan sabab va sharoitlar haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar olishga imkon beradi.

Sud ekspertizasi — fuqarolik, xo'jalik, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat»¹ bo'lib, uning natijasi ishning ayrim holatlari yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa beriladi. Bu xulosa jinoiy ish yuzasidan dalil bo'lib, boshqa dalillar bilan bir qatorda baholanadi.

Sud va tergov organi xodimlari ekspertiza tadqiqotlari uchun zarur bo'lgan maxsus bilimga ega bo'lgan taqdirda ham ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod qilinmaydi, chunki ularning protsessual holati bo'yicha ishni tekshirishda o'ziga xos vakolati bo'lib, ekspertiza o'tkazadigan mutaxassislarning vakolatlari ham protsessual holatidan kelib chiqadi.

Sud-ekspertlik faoliyati — sud ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyat². Ekspertlarning faoliyati ishlash joylari davlat ekspertiza muassasalarida yoki boshqa tashkilotlarda bo'lishi mumkin. Ularning qaerda ishlashlaridan qat'i nazar ish yuzasidan ekspert qilib tayinlash protsessual qonunda ko'rsatilgan tartib asosida amalga oshiriladi hamda ularning huquq va majburiyatlari tengdir.

Ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida ekspert mustaqil protsessual shaxs sifatida ekspertizaga oid bo'lgan qo'shimcha obyektlar, axborotlar jinoiy ish va ekspertiza materialidan tashqariga chiqmaydigan ma'lumotlarni talab qilishlari mumkin.

Ekspert oldiga qo'yiladigan savollar uning maxsus bilimlari hajmi-dan tashqariga chiqmasligi lozim. Tadqiqot natijasida beriladigan xulosa-

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. –2010. – №22. – 173-м.

² Ўша жойда.

lar esa ekspertning bilim doirasi bilan chegaralanadi va uning vakolatidan tashqari chiqmasligi kerak. Ekspert jinoyatni tergov qilish va sud jarayoni davrida mutaxassis sifatida ham jalb etilishi mumkin.

Mutaxassis maqomi JPK 69-moddasida esa uning to'liq ifodalangan, 70-moddasida esa huquq va majburiyatlari belgilangan.

Kriminalistik ekspertizalarni tashkil qilish uchun materiallar tayyorlash, ekspert hal qiladigan savollarni to'g'ri belgilash, taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalarni olish va boshqa shu kabi masalalarni amalga oshirish uchun tergovchi yoki sud kriminalistik texnika sohasi bo'yicha mutaxassisni taklif etishi mumkin. Ekspertiza tayinlash davrida mazkur ekspert tadqiqotining imkoniyatlari, qaysi sohadagi maxsus bilim talab qilinishi, tadqiqot obyektlarini ko'chirib olish, mustahkamlash, tadqiqot vazifasini aniq belgilab, savollarni ekspertiza predmetiga oid ravishda to'g'ri tuzish kabi choralarni amalga oshirishda kriminalist-mutaxassisning yordami beqiyosdir.

Ayrim turdagi dalillar ishonchsiz hisoblansa-da (ayblanuvchi yoki guvohlar o'zlariga dastlabki tergov jarayonida jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatilganligini vaj qilib, sudda o'z ko'rsatuvlarini o'zgartirishi yoki uni rad etishi va boshqalar), ekspert xulosasi xolis va ilmiy asoslangan dalil sifatida baholanadi. Chunki «sud ekspertining xulosasi (xulosa) – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-expert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat»dir¹.

Shu boisdan, xulosada: sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy; sud ekspertizasini o'tkazish asosi; sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar; sud eksperti (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar; sud ekspertining bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi; sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar; sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari; sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar; qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirish-

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №22. – 173-м.

larning mazmuni va natijalari, shuningdek bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi; tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar; ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar»¹ ko'rsatiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, ekspert xulosasida huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Ekspertning faoliyati «qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, sud-ekspertining mustaqilligi, sud-ekspert tadqiqotlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi»² kabi prinsiplarga asoslanadi. Shuning uchun sud ekspertizalarining ahamiyati hozirgi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan qonun bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasida barcha sud-ekspertlik muassasalarining faoliyatiga oid boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligida sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi masalani hal etish mezoni – huquqiy asos belgilab berilgan. Jumladan, kodeksning 172-moddasi (Ekspertiza tayinlash uchun asoslar)ga muvofiq «ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo'lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi. Ekspertiza o'tkazish zarur deb topilgandan so'ng tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Ekspert mazkur qaror (ajrim) bilan tanishib chiqqanidan so'ng tashabbuschidan tadqiqot uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni olishi kerak. Qarorda (ajrimda) ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lgan sabablar; ekspertizaga yuborilayotgan ashyoviy dalillar va boshqa obyektlar, ularning qachon, qaerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi; ish materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazishda esa ekspert xulosasi asoslanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar; ekspert oldiga qo'yilgan savollar; ekspertiza muassasasining nomi yoki ekspertiza o'tkazish topshirilgan

¹ Ўша жойда.

² Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №22. – 173-м.

shaxsning familiyasi ko'rsatilishi shart. Shuningdek, unda berilgan savollar puxta shakllantirilgan bo'lishi kerak. Ekspert oldiga qo'yilgan topshiriqni to'g'ri belgilash ko'p jihatdan savollarning aniqligi va mantiqiy izchilligiga bog'liqdir.

Ekspertiza tadqiqotlariga yuboriladigan material tarkibiga ekspertiza tayinlanishi uchun mavjud bo'lgan asoslarini o'zida ifoda etgan qaror (ajrim), tekshiriladigan obyektlar (ashyoviy dalillar; turli izlar, qon va boshqa biologik moddalar, otilgan o'q, gilzalar, o'qotar va sovuq qurollar, taqqoslash tadqiqotlari uchun zarur bo'lgan namunalar, hujjatlar va boshqa moddiy narsalar yuboriladi.

Ayrim hollarda tergov va sud ishlarini olib borish jarayonida qo'shimcha yoki takroriy ekspertizalar o'tkazish zaruriyati tug'iladi. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi qonuniga ko'ra: «Qo'shimcha sud ekspertizasi xulosadagi bo'shliqlarning o'rnini to'ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) tomonidan o'tkaziladi. Xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud ekspertizasini o'tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertizasi tayinlanadi.

Qayta sud ekspertizasi tayinlanganda sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkin. Qayta sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda qayta sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) birinchi (oldingi) sud ekspertizasi xulosasiga qo'shilmaganligi sabablari ko'rsatilishi lozim.

Dastlabki va takroriy ekspertiza materiali odatda o'zgarishsiz qoladi, lekin ekspertning talabiga ko'ra takroriy ekspertiza materiali qo'shimcha namunalar bilan to'ldirilishi mumkin. Takroriy ekspertiza komissiya, ya'ni ikki yoki ko'proq bo'lgan ekspertlar tomonidan o'tkaziladi. Birinchi ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazgan mutaxassisning fikri, xulosalari takroriy xulosalarga qarama-qarshi bo'lmasa u takroriy ekspertiza tadqiqotlarida komissiya tarkibida ishtirok etishi mumkin, aks xolda u o'zining avvalgi asosiy xulosasiga ichki ishonch hosil qilganligi tufayli uning xulosa-fikri o'zgarishsiz qoladi.

Birinchi ekspertiza natijasi bilan ikkinchi takroriy ekspertiza xulosasi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan taqdirda uni komissiya ishtirokida tajribali mutaxassis rahbar xodimlar bilan hamkorlikda muhokama qilinadi va ulardan qaysi biri to'g'ri ekanligi baholanadi. Ko'pchilik fikr

xulosasi to‘g‘ri kelgandagina xulosa bir bo‘lib imzolanadi va obyektiv deb topiladi.

Takroriy ekspertiza uchinchi marotaba ham tayinlanishi mumkin. Ekspertiza amaliyotida shunday hollar uchrab turadiki, birinchi ekspertiza fikri bilan ikkinchi takroriy ekspert xulosasi bir-biriga qarama-qarshi, har qaysisi ham asosli va qator belgi sifatlarga tayangan holda tekshirilgan bo‘lib, tergov ulardan qaysi birini ishga qo‘shish lozimligini bilolmay qiyinchilikka duch keladi. Ana shunday xollarda tergov yoxud sud uchinchi marotaba takroriy ekspertiza tayinlashga haqlidir.

Qayta sud ekspertizasini o‘tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o‘tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o‘tkazishda hozir bo‘lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirish o‘tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi»¹.

Zarurat tug‘ilganda, ko‘rilayotgan jinoyat ishi bo‘yicha «sud ekspertizasi bir xil (komissiyaviy sud ekspertizasi) yoki turli xil (kompleks sud ekspertizasi) sud-ekspert ixtisosligidagi bir necha sud eksperti tomonidan o‘tkazilishi mumkin»².

Komissiyaviy sud ekspertizasi o‘tkazilayotganda sud ekspertlarining har biri tekshirishlarni to‘liq hajmda o‘tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi. Sud ekspertlari umumiy fikrga kelganidan so‘ng birgalikdagi xulosani yoki xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi. Sud ekspertlari o‘rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo‘yicha alohida xulosa beradi.

Kompleks sud ekspertizasi ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir necha tekshirish o‘tkazish yo‘li bilangina aniqlash mumkin bo‘lgan hollarda tayinlanadi. Kompleks sud ekspertizasini o‘tkazishda sud ekspertlarining har biri o‘z vakolati doirasida tekshirishlar olib boradi. Kompleks sud ekspertizasining xulosasida sud ekspertlarining har biri qaysi tekshirishlarni va qancha hajmda olib borganligi, qaysi holatlarni shaxsan o‘zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko‘rsatiladi. Sud ekspertlarining har biri xulosaning ushbu tekshirishlar bayon etilgan qismini imzolaydilar va ular uchun javob-

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни, – 18–м. / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2010. – 22–сон. – 173–м.

² Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни, – 19–м. / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2010. – 22–сон. – 173–м.

gar bo‘ladi. Umumiy fikrni (fikrlarni), olingan natijalarni baholashga va ushbu fikrni (fikrlarni) shakllantirishga vakolatli bo‘lgan sud ekspertlari qiladi. Agar sud ekspertlari komissiyasi yakuniy fikri yoki bir qismining asosi sifatida sud ekspertlaridan birining (alohida sud ekspertlarining) aniqlagan holatlari olingan bo‘lsa, bu haqda xulosada ko‘rsatilishi kerak. Sud ekspertlari o‘rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo‘yicha alohida xulosa beradi. Agar kompleks sud ekspertizasini o‘tkazish davlat sud-ekspertiza muassasasiga topshirilgan bo‘lsa, unda ushbu ekspertizani tashkil qilish uning rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Sud ekspertizasining sud ekspertlari komissiyasi tomonidan o‘tkazilishi sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) yoki mazkur ekspertizaning o‘tkazilishini tashkil etuvchi davlat sud-ekspertiza muassasasi yoxud boshqa tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi. Sud ekspertizasini o‘tkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi o‘z oldiga qo‘yilgan masalalarni hal etish zarurligidan kelib chiqib, o‘tkaziladigan tekshirishlarning maqsadi, ketma-ketligi va hajmini kelishib oladi.

Sud ekspertizasini o‘tkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi tarkibidagi har bir sud eksperti tekshirishlarni mustaqil va alohida olib boradi, shaxsan o‘zi va komissiyaning boshqa a‘zolari tomonidan olingan natijalarni baholaydi hamda qo‘yilgan savollar yuzasidan o‘z maxsus bilimlari doirasida fikrlarini shakllantiradi.

Tekshirishlarning sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiritilmagan shaxslar tomonidan to‘liq yoki qisman o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sud ekspertisasi o‘zida bilish jarayonini ifodalab, uning chegaralari va yo‘nalishlari tergovchi va sud tomonidan belgilanadi. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq, tergovchi tergovni yuritadi hamda tergov harakatlarini amalga oshiradi hamda har bir aniq holatda tegishli qarorni qabul qiladi. Ekspertizani tayinlar ekan, tergovchi ishni tergov qilish uchun zarur bo‘lgan materiallarni yig‘adi, ekspertlarni tanlaydi va tayinlaydi, ekspertiza o‘tkazish vaqtini aniqlaydi, ekspert ish hajmi va vazifalarini belgilab beradi.

Tergovchining ekspertizani tayinlash to‘g‘risidagi tashabbusi tergovchining ushbu masalani hal qilishdagi (ixtiyori) erkinligi darajasini belgilashni talab qiladi. Ushbu vaziyatda «tergovchining ixtiyoriy erkinligi haqida ehtiyotkorlik bilan hamda shartli ravishda so‘zlash mumkin hisoblanadi»¹.

¹ *Абакиров К.К.* Процессуальные и организационные проблемы применения специальных познаний при производстве судебных экспертиз: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 44-55.

Birinchiidan, tergovchi ekspertizani tegishli asos bo'lgan holdagina tayinlaydi. Umumiy asos bo'lib fan, texnika yoki hunarning turli sohalarida maxsus bilimga ehtiyoj tug'ilishi namoyon bo'ladi. Basharti ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lsa, tergovchi ekspertiza tayinlashi shart: ushbu holatda u o'z ixtiyoriga ko'ra harakat qila olmaydi.

Ikkinchiidan, maxsus bilimlarni jalb qilishga ehtiyoj tergovchi tomonidan izlanayotgan faktning tabiatidan hamda u yoki bu sohadagi bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Shunday qilib, tergovchining ixtiyori haqida faqatgina protsessual ma'noda, ya'ni tergov ehtiyojlari hajmini aniqlashdagi harakat erkinligi to'g'risida gapirish o'rinli bo'lardi. Ayni damda tergovchi rad etishi mumkin bo'lmagan obyektiv mezonlar mavjudligini ham hisobga olish zarur.

Ekspertizani tayyorlash va tayinlashda tergovchi qator masalalarni, birinchi navbatda ekspertizani tayinlashning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalani hal qilishi lozim.

Basharti ekspertiza qonun bo'yicha majburiy hisoblanmasa, tergovchi ish holatlarini boshqa isbotlash vositalari yordamida aniqlashni imkoni bo'lmagan yoxud tergovchi ixtiyoridagi dalillar to'liq bo'lmagan yoki ularda qarama-qarshiliklar bo'lgan hollarda tayinlanishi lozim. Bunda shuni hisobga olish lozimki, ishni tergov qilish vaqtida mutaxassis yordamidan foydalanish mumkin bo'lsa, bunday imkoniyat qo'llanilishi lozim.

Ekspertiza unga ehtiyoj aniq bo'lishi zahoti darhol tayinlanadi. Agarda tergovchi ixtiyorida barcha zarur materiallar bo'lsa, ekspertiza tayinlanishi paysalga solish tergov muddatlari cho'zilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, tegishli materiallar imkon qadar tezroq olish va ekspertiza tayinlash maqsadga muvofiqdir.

Ekspertiza tayinlash ehtiyoji jinoyat ishini tergov qilish jarayonida ishning ayrim munozarali holatlari yuzasidan maxsus bilim talab qilindanda hosil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 173-moddasida ekspertiza o'tkazilishi shart bo'lgan qator holatlari qayd etilgan. Qonunning ko'rsatmasi ushbu holatlar haqida ish materialida boshqa ma'lumotlar (guvoh jabrlanuvchilarning ko'rsatmalari) bo'lishidan qat'i nazar ekspertiza xulosasini olish majburligini ta'kidlaydi.

Ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashda, jumladan kriminalistik ekspertizasining ayrim turlarini tayinlash, hal qilinadigan masalalar kriminalistika texnikasi sohasidagi maxsus bilimni talab qilgan taqdirda zarur bo'ladi. Kriminalistik ekspertizasining obyektlari turli ashyoviy dalillar, solishtirib tekshirish uchun olingan namuna-

lar, daliliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa moddiy narsalar, turli hujjatlar bo'lishi mumkin.

Mazkur ekspertiza obyektlari ekspertiza tayinlash haqidagi qaror yoki ajrimda alohida-alohida nomlari belgi sifatleri bilan ko'rsatiladi. Qaror (ajrim)da ekspertiza tayinlash uchun sabab bo'lgan asoslar bilan bir qatorda, ekspert hal qiladigan savollar ham qayd qilinadi. Savollar aniq, ravon va ekspertning maxsus bilimi doirasidan tashqari chiqmaydigan bo'lishi lozim.

Sud ekspertizasi materialini qaror, ajrim, tadqiqot obyektlari tergov va sud davlat ekspertiza muassasasiga yuboradi. Muassasa rahbari tegishli mutaxassis xodimga topshiradi. Shu bilan birga, protsessual qonunida belgilanganidek, ekspert sifatida ekspertiza muassasasidan tashqari joylarda xizmat qiluvchi mutaxassislarni ham jalb etib, ekspertiza materialini ularga bevosita topshirish mumkin.

Ekspertizaga tekshiriluvchi obyektlar ashyoviy dalil, uning ayrim qismlari, modda qoldiqlari bilan bir qatorda solishtirib tekshirish uchun zarur bo'lgan namunalar-nusxalar ham yuborilishi lozim. Namunalarning hajmi, sifati ekspert tadqiqotini to'la va obyektiv bo'lishligini ta'minlaydi. Ekspertiza tadqiqotlari uchun olinadigan namunalarning turlari va ularni olish tartibi JPKning 188-moddasida ko'rsatilgan.

Bu borada ekspert muassasasi yoki ekspertni to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Bunda obyektning o'ziga xos xususiyatlarini, hal etish uchun qo'yilgan masalalarning murakkabligi, u yoki bu ekspert muassasasining imkoniyatlarini hisobga olish lozim. Muassasa rahbari tadqiqotni o'tkazishni aniq bir ekspertga topshiradi va barcha boshqa tashkiliy masalalarni hal qiladi.

Agarda ekspertiza ekspertiza muassasasidan tashqarida o'tkazilayotgan bo'lsa, tergovchining o'zi ekspertni chaqiradi, uning bilim darajasini aniqlaydi, ekspertga qarorni va ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha obyektlarni topshiradi, unga uning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi hamda yolg'on xulosa berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi.

Shu bilan bir qatorda tergovchi ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchini ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror bilan tanishtirishi lozim. Bunda ekspertizani aniq bir ekspertga topshirish, tergovchi tomonidan tanlangan ekspertni rad etish, qo'shimcha savollarni qo'yish, ekspertizani o'tkazish jarayonida ishtirok etish hamda ekspertga tushuntirishlar berish va boshqa masalalar bo'yicha iltimoslar qilinishi mumkinligi hisobga olinadi.

Demak, sud ekspertizasini tayinlash murakkab jarayon bo'lib, u ham ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tashabbuslari, ham tergovchining vakolatini amalga oshirish natijasi hisoblanadi.

Ekspertiza tayinlash chog'ida bir qator protsessual munosabatlar majmui shakllanadi: tergovchi va har bir ishda qatnashayotgan shaxs o'rtasidagi, tergovchi va ekspert o'rtasidagi munosabatlar shular jumlasidandir.

Ekspertiza tayinlash bo'yicha harakatlarning natijasi alohida protsessual hujjat – tergovchining sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorida aks etadi. Aynan u tergovchi va ekspert o'rtasidagi munosabatlar tizimini vujudga keltiruvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Tergovchining ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarori muayyan talablarga javob berishi hamda tegishli tuzilmaga ega bo'lishi lozim. Bu qaror O'zbekiston Respublikasi JPKning 180-moddasiga asosan chiqariladi. Bunday qarorda quyidagilar belgilanishi lozim:

– qaerda, qachon, kim tomonidan va qanday asoslarga binoan chiqarilganligi;

– ekspertiza o'tkazish zarurligini taqozo etgan shart-sharoitlar;

– ekspertiza o'tkazish topshirilgan muassasaning nomi;

– ekspertiza oldiga quyilgan va ekspert javob berishi kerak bo'lgan savollar;

– tadqiqotga yuborilayotgan obyektlarning nomi;

– ekspertizaga taqqoslash tadqiqotlari uchun qanday namunalarni jo'natilganligi.

Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorning namunaviy shakli jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilanmagan. Ammo, amaldagi qonunchilikni va tergov amaliyotini tahlil etish natijasida bunday qarorlar quyidagi uch qismdan iborat bo'lishi ma'lum bo'ldi: kirish qismi, ta'rifiy-asoslash qismi va qaror chiqarish qismi.

Qarorning kirish qismi o'ziga hujjatning nomi, u chiqarilgan vaqt va joy, ushbu qarorni chiqargan shaxsning lavozimi, unvoni hamda familiyasi va ismi-sharifi, ekspertiza tayinlanayotgan jinoyat ishining nomeri va nomlanishi kabi ma'lumotlarni mujassam etadi.

Qarorning ta'rifiy-asoslash qismida jinoyat ishining ana shu tayinlanayotgan ekspertizaning predmetiga tegishli bo'lgan mazmuni va shart-sharoitlari, ekspertiza tayinlash uchun asoslar keltiriladi va JPKning dastlabki tergov harakatlari jaryonida ekspertiza tayinlash va o'tkazishni muvofiqlashtiruvchi moddalariga murojaatlar qayd etiladi.

Qarorning qaror chiqarish qismida quyidagilar ko'rsatiladi: tergovchining ekspertiza tayinlash haqidagi qarori, ushbu ekspertizani o'tkaza-

digan muassasaning nomi, ekspert javob berishi kerak bo'lgan savollar-ning ro'yxati va ekspertning ixtiyoriga tadqiqot uchun yuborilayotgan materiallarning ro'yxati va nomi.

Ekspertiza tayinlash va ushbu ekspertizaning natijalari quyidagilarni qamrab oluvchi tayyorgarlik bosqichiga bog'liq bo'ladi:

- ekspertiza tayinlash va uni o'tkazish uchun asoslarni aniqlash maqsadida jinoyat ishi materiallarini tahlil etish;
- tadqiqot uchun obyektlar va materiallarni ko'zdan kechirish va ularni rasmiylashtirib olish;
- ekspertiza tadqiqotlari uchun zarur obyektlar va boshqa materiallarni tayyorlash;
- ekspertiza tayinlash haqidagi qaror qabul qilish;
- ekspertizani tayinlashning zarur vaqtini aniqlash;
- ekspertiza o'tkaziladigan muassasani to'g'ri tanlash;
- ekspert oldiga savollarni to'g'ri tanlab qo'yish;
- ekspertga tanishish uchun jinoyat ishi materiallarining qanday darajadagi qismlarini tadqim etish haqidagi savolni hal etish.

Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorni chiqarishdan oldin ekspertiza obyektlarini ko'zdan kechirib olish kabi juda muhim tadbir mavjud. Shu boisdan, kriminalistik ekspertizalarni o'tkazish metodikasini batafsil o'rganilsa, ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirishning tashkiliy jihatlarini tushunish mumkin bo'ladi.

Tergovchi, shuningdek, ekspertiza o'tkazish jarayonida ham qatnashishga haqli. Ayni damda qonun chiqaruvchi tergovchining ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish vaqtidagi vakolatlarini aniq belgilamaydi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq, tergovchi ekspert ixtiyoriga materiallarni taqdim etar ekan, tadqiqot predmetini belgilaydi. U ekspertga materiallarning kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi, ularning ish uchun ahamiyatini ochib beradi, ekspertga savollarni qo'yadi. Biroq, ekspertiza o'tkazish jarayonida tergovchining ishi faqatgina shu bilan cheklanib qolmaydi.

Tergovchining ekspert bilan o'zaro hamkorligi eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritish uchun ekspertiza o'tkazishning barcha bosqichlarida – uning tayinlanishida yoki o'tkazilishi jarayonida va ekspert xulosalarini baholashda ham amalga oshirilishi lozim. Bir qator hollarda tergovchining ekspertiza o'tkazishdagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Bu tergovchiga ekspert tadqiqoti uslubini yaxshiroq tushunish, ekspert xulosalarini to'g'ri va aniq baholash, ularni ish bo'yicha dalillar tizimidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Tergovchining tadqiqot jarayonida ishtiroki

qo‘shimcha va takroriy ekspertizalarni asossiz ravishda tayinlanishining oldini oladi.

Bu tergovchiga ekspertiza yo‘nalishidan o‘z vaqtida xabardor bo‘lish, ekspertga esa tergovchining e‘tiborini tekshirish jarayonida aniqlangan hamda yangi jinoiy hodisalar haqida xabar beruvchi hamda ilgari tergovga noma‘lum bo‘lgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka jalb etish bo‘yicha yangi holatlarga qaratish imkonini beradi (masalan, bunday holat sud-buxgalteriya ekspertizasida namoyon bo‘ladi).

Tabiiyki, tergovchining ekspert tadqiqotida ishtirok etishi, tergovchi ekspert tomonidan o‘tkazilayotgan sof ekspertlik faoliyatiga aralashishi, ekspertning tashabbusini cheklashi hamda unga uning maxsus bilimlari sohasida ko‘rsatmalar berishi, u yoki bu darajada ekspert funksiyalarini shaxsan bajarishi, ekspertga bosim ko‘rsatishi, uni ish bo‘yicha tanlangan tuzumga mutanosib xulosa berishga undashi mumkinligini anglatmaydi.

Tergovchi butun tadqiqot davomida ham, shuningdek, ekspertning alohida harakatlarda ham ishtirok etishga haqli, biroq ekspert xulosalarini muhokama qilish bosqichi bundan mustasno. Tergovchi ekspertiza tadqiqotlarida ishtirok etishi zaruriyati tug‘ilganligi haqida ekspertni xabardor qiladi, o‘z navbatida, ekspert esa tergovchiga uni qiziqtirayotgan tekshirish o‘tkaziladigan joy va vaqt haqida ma‘lum qiladi. Tergovchining qatnashmasligi ekspertiza yurituvini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Ekspert o‘z tashabbusi bilan tergovchiga uni ekspertiza tadqiqotlarida qatnashishi maqsadga muvofiqligini ma‘lum qilishi mumkin.

Shuningdek, ekspert tergovchining sud-psixiatriya ekspertizasi o‘tkazishdagi ishtirok ekspertiza natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi deb hisoblasa (tekshirilayotgan shaxs bilan ruhiy aloqani o‘rnatish qiyinlashishi oqibatida), u bu haqda tergovchiga xabar beradi. Biroq, ogohlantirishga qaramay, tergovchi ekspertiza o‘tkazishda ishtirok etishga qaror qilsa, ekspert bunga qarshilik qila olmaydi, biroq, o‘z xulosasida begona shaxslarning qatnashishi ekspertiza jarayoni va natijalariga ta‘sir qilganligini (masalan, ekspertiza o‘tkazilayotgan shaxsdan zarur ma‘lumotlarni olishning imkoni bo‘lmadi va natijada ekspert tadqiqoti to‘liq bo‘lmadi va h.k.) ko‘rsatishga haqli.

Tergovchining ekspert tadqiqoti jarayonida shaxsan ishtirok etishi unga tadqiqot jarayoni va uning natijalarini bevosita kuzatish imkonini beradi. Ayni damda bunda tergovchining roli faqatgina passiv kuzatuvga tenglashtirilishi lozim.

Ekspertlar tomonidan samarali usul va texnik vositalar qo‘llanilmagan taqdirda tergovchi ekspertga ashyoviy dalillarni har tomonlama va

to'liq tekshirishga erishish uchun bunday usullardan foydalanishni taklif qilishga haqli. Tergovchi ekspertni tekshirishning aniq usulidan foydalanishga majburlashga haqli emas. Ekspert unga taklif etilayotgan usulning ilmiy jihatdan asoslanmaganligi ishonchi komil bo'lsa, xulosa berishni rad etishi mumkin.

Tergovchining ekspert tadqiqotini o'tkazishdagi ishtiroki u ekspert ishi haqida hamisha xabardor bo'lishini, u qanday to'siqlar va qiyinchiliklarga duch kelayotganini bilishga, uning ishidan kelib chiqqan holda yangi savollar shakllantirishi mumkinligini ta'minlaydi.

Demak, tergovchi ekspertiza tadqiqotlarida qatnashishi orqali quyidagi qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- ekspert xulosasini baholash;
- ekspertga qo'yilgan savollar mohiyatini, ekspert hisobga olmagan ma'lumotlar ahamiyatini, tadqiqot jarayoni va natijalarini to'liq qayd etish zaruriyatini tushuntirish;
- qo'shimcha materiallar taqdim etish yoki qo'shimcha ekspertiza tayinlash zaruriyatini aniqlashtirish;
- ekspert harakatlarini o'tkazish to'g'risidagi qonunning barcha talablari ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- yangi dalillar to'plash zaruriyatini aniqlash;
- ekspertga ayblanuvchi tushuntirishlarini olish va qayd etishga yordam ko'rsatish.

Tergovchi tomonidan olinadigan erkin va eksperimental namunalar ekspert tekshirishlari uchun etarli va asosli bo'lishi kerak. Olingan namunalar obyektning haqiqiy o'zidan kelib chiqqanligi shubhasiz va asosli bo'lishi uchun protsessual rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

Tadqiqot zarur bo'lgan namunalar olish uchun tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Nusxalar olinganligi haqida bayonnoma yozilib, unda olingan namunalarning soni, namuna olishdagi shart-sharoitlar, bajarilish usullari batafsil yozilishi, tuzilgan bayonnoma va imzolar bilan tasdiqlanishi kerak. Ayblanuvchi, gumondor guvoh yoki jabrlanuvchidan qog'oz ustiga yozdirib olingan namunalar tergovchi hamda namunani bajaruvchi tomonidan tasdiqlanib imzolanadi. Olingan namunalar boshqa obyektlar kabi tegishli tartib va usulda o'raladi va muhrlanadi.

Ekspertiza uchun olingan namunalar jinoyat-protsessual qonuniga binoan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ekspert o'zi tashkil qilib olgan namunalari va eksperiment tadqiqotlarini o'zining xulosasini, bayonot, ya'ni tadqiqot qismida to'la va aniq aks ettiradi.

Tadqiqot uchun olingan namunalarni ekspertizaning boshqa obyektlari qatorida tegishli usulda o'rab-joylashtirilib, ularning turi va soni qaror (ajrim)da ko'rsatiladi.

Ekspertiza natijalari va ekspertning taqdim etilgan obyektlar bilan o'tkazgan tadqiqotlari ekspert xulosasi shaklida rasmiylashtiriladi. Ekspert xulosasi quyidagi qismlardan iborat:

- ekspertiza xulosalarining kirish qismi;
- ekspertiza xulosalarining tadqiqot qismi;
- ekspertning yakuniy xulosalari;
- ko'rgazma materiallar (fotojadvallar).

Ekspertiza xulosasining kirish qismi. O'zbekiston Respublikasining 2010-yilda qabul qilingan «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual Kodeksiga binoan ekspertiza xulosasining kirish qismida «sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy; sud ekspertizasini o'tkazish asosi; sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar; sud eksperti (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar; sud ekspertining bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi; sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar; sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari; sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar»¹, undan tashqari, «ishning mohiyati» belgisi ostiga ko'rilayotgan jinoyat ishining to'liq tafsilotlari, daliliy ashyolarning aniqlanish va topib olinish sharoitlari ko'rsatiladi.

Ekspertiza xulosalarining tadqiqot qismi. Xulosaning bu qismida ekspert taqdim etilgan obyekt o'ramining holati, agar o'ram buzilgan bo'lsa, bu buzilish obyektga qanday ta'sir ko'rsatgani to'g'risida batafsil yoziladi. Ekspertizalarda tadqiqotlar jarayonida foydalanilgan texnik vositalar ko'rsatiladi.

Tadqiqot qismida tadqiqot jarayonida aniqlangan barcha umumiy va xususiy alomatlar, ularning ekspert muayyan bir to'xtamga kelishiga

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни / Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №22. – 173-м.; Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процесуал кодекси (184-модда).

yordam beradigan to'plami ta'riflanadi. Chunki, aniqlangan alomatlar va belgilarni ta'riflab yozishning to'liqligi, ekspert xulosasi keltirib chiqarishga asos bo'ladigan alomatlar yig'indisiga bog'liq bo'ladi. Aniqlangan alomatlarni tahlil etish va baholash avvalo alohida-alohida o'tkaziladi, keyin esa aniqlangan umumiy va xususiy alomatlarning majmuasi baholanadi. Ekspert xulosasining tadqiqot qismi o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini baholashni bayon etish bilan yakunlanadi. Bunda aniqlangan alomatlar nimalardan darak berishi yoki qanday xulosa chiqarishga asos bo'la olishi, alomatlarning o'xshashligi yoki farqlari nimalarda namoyon bo'lishi, aniqlangan alomatlar qat'iy ijobiy yoki qat'iy salbiy xulosa chiqarish uchun etarli (etarli emasligi) ekanligi ko'rsatiladi. Shu erning o'zida ekspertizaning yakuniy xulosalariga asos bo'ladigan faktlar bayon etilishi lozim. Tadqiqot qismida *ekspert tajribalarini o'tkazish* jarayoni ham yoritiladi, chunki ekspertiza tadqiqotlarida ekspertiza xulosasining yakunini shakllantirish uchun tadqiqot jarayonida bajarilgan tajribalarning borishi va natijalarini bayon etish zarur bo'ladi. Tajribadan olingan ma'lumotlar ekspertga izlarni hosil bo'lish mexanizmlarini, iz hosil qiluvchi obyektlarning aks etgan izlarini haqiqiysidan qay darajada chetlashganini aniqlashni, alomatlarni aks etish barqarorligini va ularni boshqa obyektlarga tasvirlanishining aniqligini baholash imkonini beradi.

Ekspertning yakuniy xulosalari. Bu ekspertiza xulosasining yakuniy qismi bo'lib, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda ekspertiza oldiga qo'yilgan savollarga aniq va qisqa javoblar beriladi.

Ko'rgazma materiallar (fotojadvallar). Ekspertiza xulosalarining fotojadvallari quyidagicha rasmiylashtiriladi:

- ilova etilayotgan fotosuratlar yorqin tasvirlanadi;
- fotosuratlar etarlicha bo'ladi;
- ilova qilingan fotosuratlar raqamlanadi, izohlar yoziladi;
- fotsuratlar bir xil masshtabda bo'ladi, alomatlar alohida belgilanadi.

Ekspertiza amaliyotida ba'zi hollarda qat'iy xulosa berishning iloji bo'lmaydi, bunda taxminiy yoki qo'yilgan savollarni hal qilishning imkoni bo'lmaganligi haqida xulosa beriladi. Bunday xulosaning sababi to'la va asoslangan, isboti ekspert hujjatining tadqiqot qismida ifodalangan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- ekspertiza amaliyotida qo'llaniladigan tadqiqot metodikasining ishlab chiqilmaganligi;
- tekshirilgan obyektning o'ziga xos bo'lgan individual belgilarning hajmi etarli emasligi va boshqa omillar.

Ko'rsatilgan holatlar ekspertiza materialining takroran tadqiqotlarini o'tkazish uchun ekspertiza muassasalariga yuborishga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, faqatgina ekspert va tergovchi o'rtasida birgalikdagi tizimli protsessual harakatlar amalga oshirilar ekan ekspertiza jinoyatlarni ochishda asosiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tergovchi tayinlayotgan va o'tkazilayotgan ekspertiza imkoniyatlarini aniq bilishi va ekspertga xulosa shakllantirishda amaliy yordam berishi talab qilinadi.

6-§. METALLAR, QOTISHMALAR VA ULARDAN TAYYORLANADIGAN MAHSULOTLAR EKSPERTIZASI

Metallshunoslik, fizika va kriminalistika sohasidagi maxsus bilimlar asosida olinadigan ma'lumotlar orqali ko'rilayotgan ish vaziyatini, haqiqatni aniqlash, metallar, eritmalar, (qotishmalar) va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasining predmetini tashkil qiladi. Ushbu ekspertiza doirasida mikroobyektlarning tadqiqotlari ham o'tkazilishi mumkin. Bu turdagi ekspertiza tadqiqotlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- metallarning qoldiqlarini va turlarini topish, ularni qanday maqsadlarda ishlatilishini aniqlash;

- metall bo'lakchalari bir butunni tashkil qilganligini aniqlash.

Bu masalalarni hal qilish uchun savollar quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

- tekshirishga taqdim qilingan ashyoviy dalillarda metall zarrachalari bormi, bo'lsa metallarning qanday turiga kiradi;

- gumon qilinayotgan shaxsning kiyimida metall (masalan, po'lat, mis) qirindilari, kukunlari bormi;

- jabrlanuvchining yarasidan olingan zarracha metalldanmi, agar shunday bo'lsa uning tarkibida qanday metallar bor.

Ekspertiza obyektlari. Metall qotishmalar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi obyektlari sifatida quyidagilar ko'proq tarqalgan:

- qulf va seyflarning metall qipiqlari va qoldiqlari;

- avtotransport va boshqa mexanizmlarning buzilgan metall qismlari.

Ashyoviy dalillarni va namunalarni ekspertizaga tayyorlashda o'ta ehtiyotkor bo'lish va bu jarayonga diqqat bilan yondashish lozim. Metall buyumlarning tekshiriladigan yuzalari yoki ular bilan tutashib turgan buyumlar (masalan, taqqoslanayotgan mahsulotlar, metallanish izi bor deb taxmin qilingan kiyimning bir qismi, qirindi) bo'lak-bo'lak pakatlarga joylanadi.

Metall buyumning ishlab chiqarish usulini (kelib chiqish manbaini) aniqlash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni uni yasash (tayyorlash) jarayonida foydalanilgan uskuna va qurilmalarni tekshirish yo'li bilan olish mumkin. O'xshashlikni topish uchun buyumning barcha belgilari aniqlanadi, shu tufayli ekspertizaga ashyoviy dalillar haqida batafsil ma'lumotlar berilishi va solishtirish uchun tekshiriluvchi buyumlarning standart namunalari yuborilishi kerak. Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda yoki boshqa hujjatlarda hodisa natijasida vujudga kelgan ahvol, ya'ni metallning tashqi ko'rinishi, kimyoviy tarkibi va strukturasidagi o'zgarishlar to'g'risida ko'rsatib o'tilishi muhim, chunki ba'zan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

7-§. TOLALI MATERIALLAR VA ULARDAN TAYYORLANGAN BUYUMLAR EKSPERTIZASI

Har xil toifadagi jinoiy ishlar tergov qilinganda tolali tabiatga ega bo'lgan ob'ektlar (to'qimachilik materiallari, kiyim-kechak) voqea vaziyatlarini aniqlashda katta rol o'ynaydi. Chunonchi, zo'rlash, odam o'ldirish va avtomobil halokati bo'yicha jinoiy ishlar bo'yicha kiyim-kechaklar va har xil buyumlar yuzasida qolgan mayda tolalarni tekshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (qop, gazlama, choyshab va boshqalar) hamda arqonlar, bog'ichlar va ip qoplamali elektr simlar jinoyat tafsilotlari haqida muhim ma'lumot berishish mumkin. Ayrim tolalar, iplar va hatto jinoyatchi kiyimining kichik bo'laklari to'siqlardan o'tishda, boshqa obyektlarda (jabrlanuvchining kiyimida) qolishi mumkin.

Ko'pincha ashyoviy dalillar sifatida yongan (alangadan yoxud o'choqdan, pechkadan olingan) kiyim qoldiqlari yoki boshqa to'qimachilik materiallari uchraydi. Kuygan kiyimlarning qoldiqlari bo'yicha ularning dastlabki turi va qanday maqsadlarda qo'llanish mumkinligi aniqlanadi.

Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasining predmeti maxsus bilimlar asosida aniqlangan faktlarning sodir bo'lgan voqea bilan bog'liq bo'lganligini tolali materiallar yoki ularning qoldiqlari orqali belgilashdir.

Ushbu ekspertiza quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- tolali materiallar, iplar, gazlama, trikotaj va boshqa tolali obyektlarning umumiy tur va guruh xossalarga egaligini aniqlash;
- har xil predmet-tashuvchilarda aniqlangan mikrotolalarning ushbu predmetga o'rnashib qolgan joyini va ularning tekshirilayotgan voqeaga taalluqligini aniqlash;
- kiyim-kechaklar hosil bo'lgan mikrotolalar orqali ular bir-biri bilan o'zaro kontaktda bo'lganligi aniqlash;
- yonishdan qolgan qoldiqlar orqali kiyimlarning va boshqa tolali obyektlarning avvalgi (birlamchi) turini va ularning qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini aniqlash.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni hal qilish uchun tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi oldiga quyidagi savollarni qo'yish mumkin:

- jabrlanuvchi va gumon qilinayotgan shaxsning kiyimlarida bir-biri bilan umumiy turkumga ega bo'lgan mayda tolalar bormi;

– agar bor bo‘lsa, bu mayda tolalar kiyimlarda qanday hosil bo‘lgan (ular o‘zaro bir-biri bilan kontaktda bo‘lganmi);

– voqea joyidan olingan qo‘l tarkibida kiyim qoldig‘i, material va boshqa tolali materiallar qoldig‘i bormi (agar bo‘lsa ularning tabiati va ishlatish sohasi aniqlansin);

– jabrlanuvchining tirnoq osti qoldiqlarida mikrotolalar mavjudmi, bo‘lsa gumonlanuvchining kiyimlari tolalari bilan bir guruhga (turkumga) taalluqlimi.

Ekspertiza obyektlari. Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarning asosini yagona (bir donagina) tola va ip tashkil qiladi. Tolali materiallarga tekstil tolalari, texnik maqsadlarga mo‘ljallangan tolalar, iplar, gazmollar, trikotaj, to‘qimalar va boshqalar kiradi. Ushbu materiallarning kuygan bo‘lakchalari, qoldiqlari ham ekspertiza amaliyotida ko‘plab uchrab turadi. Tolali materiallarning turlari (assortimenti) juda keng va xilma-xildir. Faqatgina tekstil materiallarining assortimentiga buyumlarning bir qancha ming nomlari yoki artikullari taalluqlidir. Barcha tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar aniq bir tartibda sinflarga bo‘lingan. Shu maqsadda ilmiy-texnik (masalan, tolalar uchun), texnologik (tola, ip va gazmollar uchun) va savdo (gazmollar, kiyimlar uchun) sinflari qo‘llaniladi. Kriminalistik masalalarni hal qilishda ushbu obyektlar uchun maxsus ishlab chiqilgan sinflanish e‘tiborga sazovor.

Ashyoviy dalillarning o‘z vaqtida to‘g‘ri olinishi hamda ularni o‘zgartirmay ekspertiza muassasasiga etkazilishi tadqiqotlarning muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beradi va osonlashtiradi.

Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarni ekspertizaga tayyorlashda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

– tolali materiallar bo‘yicha ekspertiza boshqa turdagi (trasologik, sud-tibbiy, ballistik va boshqa) ekspertizalardan oldin tayinlanishi kerak, aks holda mayda tolalar yo‘qolishi yoki o‘z xususiyatlarini o‘zgartirishi mumkin. Bunga amal qilinmasa, ekspertiza natijasiz bo‘lishi, hatto jinoyatni ochishga salbiy ta‘sir qiluvchi xulosa berilishi mumkin;

– har bir kiyimni (umuman tolalali materiallarni) bir-biriga tekkizmasdan, alohida-alohida oq qog‘ozga, paketga solish va tegishli belgi qo‘yish lozim;

– obyektlarni qog‘ozga o‘rashdan oldin ularni alohida ko‘zdan kechirish lozim, agar ular ho‘l bo‘lsa quritish kerak;

– olingan ashyoviy dalillarni silkitish-qoqish, tozalash, yuvish qat‘iyan man etiladi, aks holda kerakli mikrotolalar yo‘qolib ketishi mumkin;

– yuzasida mayda tolalari bo‘lishi mumkin bo‘lgan buyumlar (sovuq qurol, transport vositalarining alohida qismlari, detallari juda ehtiyotkorlik bilan qog‘ozga o‘ralishi lozimki, ulardagi mayda tolalar yo‘qolmasligi kerak;

– yongan narsalarning qoldiqlari va murt (tez sinib ketadigan) obyektlarni shisha idishga yoki polietilen paketga solib, asli ko‘rinishining o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak;

– har bir barmoqning tirnoqosti kirlarini alohida-alohida qog‘ozga yoki kichkina probirkalarga solish kerak;

– kiyimlarning o‘zaro kontaktda bo‘lganligini aniqlash uchun ekspertga shu ishga taalluqli hujjatlarni (ashyoviy dalillarni olish haqidagi dalolatnoma) taqdim etish va bu kiyimlarning qanday holatda ekanligini (toza holatdami, yuvilganmi, kiyilganmi va hokozolar) ko‘rsatish lozim.

8-§. LOK-BO‘YOQ MATERIALLARI VA QOPLAMALARI EKSPERTIZASI

Ko‘pgina jinoyatlar bo‘yicha (yo‘l-transport hodisalari, qotillik, o‘g‘rilik va hokazo) tergov olib borilganda lok-bo‘yoq materiallari (mahsulotlari) va bo‘yalgan narsalar asosiy ashyoviy dalil bo‘lib hisoblanadi.

Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari ekspertizasining mavzusi-maxsus bilimlar asosida jinoiy ishning vaziyatini va aktlarni boshqa ahamiyatli faktlarni ushbu ashyoviy dalillarni tayyorlash texnologiyasi va boshqa ko‘rsatkichlari yordamida turli fanlar yutuqlarini qo‘llagan holda aniqlashdan iborat.

Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari ekspertizasi buyumlarning bir-biri bilan o‘zaro ta‘sirini aniqlashga yordam beradi. Bunday hollar ko‘pincha avtoto‘qnashuvlar (transport vositalarining bo‘yoq zarrachalari bo‘yicha), qotillik, o‘g‘rilik (jabrlanuvchining, ayblanuvchining kiyimidagi bo‘yoq qoplamalari va bo‘yoq surtilishlari bo‘yicha) va boshqa jinoyatlarni ochishda uchrab turadi.

Ushbu ekspertizaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalarning zarrachalarini topish;
- lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalarning tabiatini, turini, tarkibini va qaysi maqsadga mo‘ljallanganligini aniqlash;
- bo‘yalgan narsalarni tarkibida lok-bo‘yoq materiallari bor bo‘lgan izlar bilan solishtirish;
- lok-bo‘yoq bo‘lakchalari orqali bir butunlikni, umumiy bir turkumga yoki guruhga taalluqligini aniqlash;
- lok-bo‘yoqning kelib chiqish manbaini aniqlash.

Ushbu ekspertiza asosan quyidagi savollarga javob beradi:

- predmet tashuvchida lok-bo‘yoq materiallarining yoki qoplamalarning zarralari (umuman yoki ma‘lum bir turi) bormi;
- aniq narsalar (predmetlar) bir-biri bilan o‘zaro kontaktda bo‘lganmi.

Ekspertiza obyektlari. Ushbu ekspertizaning obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- bo‘yalgan narsaning lok-bo‘yoq qoplamalari va ulardan ajralgan qismlari;
- bir-biri bilan kontaktda bo‘lganligidan dalolat beruvchi izlari bor bo‘yalgan predmetlarning aniq yig‘indisi.

Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari bo‘yicha ekspertiza tayinlashda ularning xilma-xil xossalarini hisobga olish kerak. Bu obyektlar ko‘p komponentli bo‘lib, ular qurib qolgandan so‘ng tashqi ta‘sirlarga

ancha chidamli bo‘ladi. Suyuq holda esa ko‘p saqlansa, ikki-uch qavatga ajralib qoladi: pigment va to‘ldiruvchi moddalar cho‘kadi, engil komponentlar esa tepa qismga chiqib qoladi. Bu holda lok bo‘yoqning tarkibi har xil bo‘lib o‘zgarib qoladi.

Lok-bo‘yoq mahsulotlarini tayyorlashda organik va norganik moddalar asosiy komponentlar hisoblanadi. Ularning asosini bog‘lovchilar (organik moddalar), parda hosil qiluvchi sun‘iy va tabiiy qorishmalar (smola), moylar, organik va norganik tabiatga ega bo‘lgan tabiiy va sun‘iy pigmentlar – ranglar, mineral moddalar-to‘ldiruvchilar, organik erituvchilar (spirtlar, uglevodorodlar, efirlar) plastifikatorlar, sikkativlar tashkil qiladi.

Sanoatda ishlab chiqariladigan lok-bo‘yoq mahsulotlarining tarkibi ular qanday maqsadga mo‘ljallanganligiga (sanoat uchun, xo‘jalik uchun, rassomlik maqsadlari va shu kabilarga) bog‘liq. Transport vositalarini bo‘yashda komponentlar soni va kimyoviy tarkibi o‘ta murakab bo‘lgan materiallar (emallar, gruntlar, shpaklyovkalar) ishlatiladi, xo‘jalik bo‘yoqlari tarkibiga xuddi shunday elementlar kirishi mumkin, lekin ularning bog‘lovchilari kam sonli komponentlardan tashkil topgan.

Har bir transport vositalari turida o‘zining alohida qoplama aralashmasi bor: grunt, shpaklyovka, bo‘yoq (emal), lok. Yuza qismini gruntovkalash unga namga chidamlikni bo‘yoqning hamda bo‘yalgan yuzaning adgizion xususiyatlarini oshirish uchun o‘tkaziladi. Gruntlangan yuzani tekislash uchun notekis va yorilgan joylarini shpaklyovka qilinadi, undan keyin yuzaga bir qatlamdan uch qatlamgacha bo‘yoq (emal) suriladi. Ba’zi bir yuzalar (velosopedlar, mopedlar) lok bilan qoplanishi mumkin. Zavodning texnologik tarkibida asosiy detallar bo‘yaladi. Juda mayda detallar gruntlanmasligi mumkin, ular biryo‘la emal bilan qoplanadi. Bo‘yalgan yuzaning himoyasini ta’minlash lok-bo‘yoq qatlamlari soniga bog‘liq. Shuning uchun ekspertizaga olingan namunalardan lok-bo‘yoq qoplamalari qatlamlarining saqlanishi muhim ahamiyatga ega. Ekspertizaga namunalar olishda yuqorida ko‘rsatilgan hamma holatlarni yodda tutish zarur. Lok-bo‘yoq mahsulotlari va qoplamalari o‘zlarining xilmaxil xossalari yig‘indisi bilan ajralib turadi: tashqi tuzilishi (rangi, yuzasi sifati), ichki tuzilishi (ko‘p qatlamliligi, qo‘shimchalar, qatlamlarning o‘zaro birikishi) va hokozi. Bu xossalarning har biri alohida va yig‘indi holda ekspert tomonidan o‘rganiladi va ular namunalarni taqqoslashda foyda beradi.

Ashyoviy dalillar ko‘pincha yuzasi bo‘yalgan obyektlar (transport vositalari yoki ularning ba’zi detallari, qismlari, qurilish konstruksiyalari,

buzish qurollari va asboblar) va tekshirilayotgan obyektning qismlari, ya'ni lok-bo'yoq qoplamalarining zarrachalari ko'rinishida yoki predmet tashuvchining yuzasidagi bo'yoq izlari shaklida bo'ladi.

Tekshirilishi kerak bo'lgan buyum (narsa) o'rniga qirindi zarralarini yoki ulardan qandaydir yo'l bilan lok-bo'yoq qoplamasini ko'chirib olib kelib ekspertiza oldiga qo'yilgan savolni aniq echishga salbiy ta'sir etadi.

Ekspertiza vazifalarini muvaffaqiyatli echish uchun tekshirishga ashyoviy dalillar bilan birga taqqoslash uchun lok-bo'yoq mahsulotlari (bo'yalgan narsa) ham taqdim qilinishi zarur. Bundan tashqari, jinoiy ish materiallaridan lok-bo'yoqning kelib chiqishi (standart yoki qo'lbola tayyorlangan predmet va uning bo'yog'i), yuzani qayta bo'yash (texnologiya, ishlatilgan materiallar, asbob-anjomlar), narsalarning bo'yalgan aniq yoki taxminiy kuni, bo'yalgan narsaning ishlatilish sharoitlari haqidagi ma'lumotlar ham ekspertiza tadqiqoti uchun ahamiyatga ega. Ashyoviy dalillarni ekspertizaga tayyorlashda quyidagi talablarga rioya qilish zarur: ashyoviy dalillar – voqea joyidan topilgan bo'yoq parchalarini yig'ishtirish, qog'oz paketga o'rash jarayonida ularning sinishi, bir-biridan ajralishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki trasologik tekshirishlar o'tkazish uchun, ya'ni bo'yoq parchalarining bir butunga taalluqliligini aniqlashda parchalarning butunligi muhim ahamiyatga ega.

Buyumlar ifloslanish izlari bilan olinganda shunday o'ralishi kerakki, toki eski izlar yo'qolmasin va jinoyatga aloqasi bo'lmagan yangilari hosil bo'lmasin.

Bo'yalgan narsaning lok-bo'yoq qoplamasi lat egan joyi hamda bo'yoq tekkan kiyim va boshqa obyektlarni qo'shimcha mexanik ta'sirdan va qandaydir yot zarralardan asrash kerak. Ashyoviy dalilda bo'yoq izlari bor deb taxmin qilinganda, birinchi navbatda unda bo'yoq izi bor-yoqligini aniqlash va tekshirish lozim. So'ngra, zarur bo'lgan taqdirda, ashyoviy dalil sud-tibbiy va boshqa ekspertizalarga jo'natiladi.

Bo'yalgan yuzalardan tekshirish uchun namunalar olinganda, ular iloji boricha, aynan o'sha lat egan, o'zaro ta'sir sodir bo'lgan joydan olinishi kerak. Bu juda muhim, masalan yuzaki qaralganda, transport vositalari detallari qaytadan bo'yalgani sezilmasa, zavod bo'yog'i bilan uning rangi (bo'yog'i) bir xil bo'lsa, tekshirishlar salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Ekspertizaga lok-bo'yoq qoplamalari, alohida bo'yalgan narsalar, olingan (kiyim bo'yoq dog'i bilan) har bir narsa alohida qog'ozga o'raladi.

Ekspertizaga bo‘yalgan buyum yoki avtotransport detallaridan olingan bo‘yoq qirindilari emas, balki o‘sha predmetlarning o‘zi yuborilishi kerak, chunki qirindi olinganda taqqoslash uchun zarur bo‘lgan lok-bo‘yoqqa xos belgilar yo‘qolib ketishi mumkin. Ho‘l bo‘lgan kiyim-kechaklar oldin uy haroratida quritilib, keyin tekshirishga yuboriladi.

9-§. NEFT MAHSULOTLARI VA YONILG‘I-MOYLASH MATERIALI EKSPERIZASI

Turli xil jinoyatlar: jasadni yoki o‘zini o‘zi yoqib yuborish, yong‘in, transport hodisalari, o‘qotar va sovuq qurol ishlatish, neft mahsulotlarini o‘g‘irlash, soxtalashtirishni tergov qilishda neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari ekspertizasini o‘tkazish zaruriyati tug‘iladi.

Neft mahsulotlar va yonilg‘i-moylash materiallari ekspertizasining daliliy ahamiyati shundaki, tekshirish natijalari bo‘yicha yong‘in sodir bo‘lgan joyda, transport vositasida, qurolida va jabrlanuvchi yoki jinoyatchining kiyimida tez yonuvchi neft mahsulotlari, yonilg‘i-moylash materiallari borligini, ularning turini, bir guruhga mansubligini aniqlash mumkin. Turli buyumlardagi yonilg‘i-moylash materiallarining izlari ushbu yonilg‘i-moylash materialini qoldirgan obyektning aynan o‘zi deb topish uchun yaroqli bo‘lishi mumkin.

Bu ekspertizaning natijalari voqea tafsilotlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy instrumental usullar (yupqa qatlamli xramotografiya, ultrabinafsha va infraqizil spektroskopiya, emission-spektral (analiz va boshqalar) yordamida har xil buyumlarda qolgan ko‘z ilg‘amaydigan, juda kam miqdorda bo‘lgan neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallarining yuqini (izini) topish mumkin. Bu hol yong‘in sodir bo‘lgan joydan olingan ashyoviy dalillarni tekshirish orqali voqeani sodir etishda tez yonuvchi suyuqlik ishlatilganmi-yo‘qmi degan masalani hal qilishga imkon beradi.

Keyingi vaqtda neft mahsulotlarini va yonilg‘i-moylash materiallarini kriminalistik tekshirishning ko‘payib ketishiga sabab, birinchidan, ularning har xil jinoyatlarni fosh etishda ashyoviy dalil sifatida o‘ynagan muhim roli bo‘lsa, ikkinchidan, qoldiq izlari orqali ularning bir guruhga mansubligini yoki mansub emasligini topish imkoniyatlarining kengayganligidir.

Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari ekspertizasi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

– buyumlarda neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallarining yuqini topish;

– to‘kilgan neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari va ularni yuqining turini aniqlash.

Ekspertizaga hal qilish uchun quyidagi savollar qo‘yilishi mumkin:

– ekspertizaga taqdim etilgan obyektlarda (kiyim, tuproq namunalari, taxta bo‘laklari va h.k.) neft mahsulotlari yoki yonilg‘i-moylash materiallarining qoldiqlari (izlari) bormi;

– ekspertizaga taqdim etilgan obyektlardagi modda qoldiqlari neft mahsulotlarining (yonilg‘i moylash materiallarining) qaysi turiga mansub.

Yuqorida keltirilganlar ko‘p uchraydigan (odatdagi) savollardir. Jinoiy ish bo‘yicha tergov jarayonida boshqa savollar ham qo‘yilishi mumkin. Ammo shuni yodda tutish kerakki, tadqiqotlar hajmi mazmuni qo‘yilgan savollarga bog‘liq, shuning uchun savollarga olingan javoblar jinoiy ish bo‘yicha ma‘lum bir voqeani aniqlashga yordam berishi kerak.

Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallarining tarkibi o‘ta murakkabligi sababli bu idishlarda qanday modda bor, dog‘ qanday moddadan qolgan, o‘xshashmi, bir xilmi yoki aynan o‘zimi singari savollarni qo‘yish tavsiya etilmaydi. Haqiqatan ham, ikki obyektning kimyoviy tarkibining bir xilligi aniqlangani bilan ularning neft mahsulotlarining bir turiga mansub deb bo‘lmaydi.

Ekspertiza obyektlari. Ekspertizaning bu turi quyidagi obyektlarga nisbatan o‘tkaziladi:

– yonilg‘i (avtomobil benzinlari, dizel, aviatsiya, bug‘qozon va reaktiv yonilg‘isi, mazutlar);

– moylar (motor, transmission, industrial, gidravlik, vakuum, uskuna, texnologik va boshqalar);

– yog‘lash materillari (antifriksion-konservatsion, uzoq muddat saqlash uchun to‘ldiruvchi);

– qattiq neft mahsulotlari (sham, parafin, tirezin, vazilin, bitum, qorakuya, ozokerit, neft koksi);

– har xil mahsulotlar (yuqori haroratda parchalash usuli bilan neftdan olinadigan mahsulotlar: benzol, toluol, ksilol, ezopropilenzol, lakoyl; shimdirish uchun ishlatiladigan vositalar, himoyalovchi mum, yog‘lash yoki sovutish uchun ishlatiladigan neft mahsulotlari).

Yuqorida qayd etilgan materiallarning xilma-xil turlari, asosan, neftni qayta ishlash usuli bilan olinadi. Undan tashqari, ular slanetslar, toshko‘mir, smolalarni qayta ishlaganda hamda kimyo ishlab chiqarish sanoatida ham olinishi mumkin.

Jinoyat vaziyatining tarkibiy qismi sifatida neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materillari har xil hajmda hamda ular ta’sir ko‘rsatgan buyumlarda qatlama, qatlam, dog‘lar holida uchrashi mumkin.

Ashyoviy dalillarni musodara etishda, o‘rab joylashda neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materillarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berish kerak:

– neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materillari suyuq va cho‘ziluvchan bo‘lganligi hamda barqaror bo‘lmagan bir shaklga ega bo‘lganligi sababli ularning hajmi saqlanayotgan idishiga qarab aniqlanadi;

– ko‘pgina neft mahsulotlari (benzin, kerosin, dizel yonilg‘isi) tarkibida tez uchuvchan moddalar bo‘lganligi sababli ular tarkib jihatdan tez o‘zgaruvchidir. Neft mahsulotlari tarkibining o‘zgarishi faqat bug‘lanish natijasida emas, balki ba‘zi bir organik moddalarning ularda erishi va ajralishi natijasida ham bo‘lishi mumkin;

– suyuq va cho‘ziluvchan neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari buyumlar, obyektining (tuproq, daraxt, suvoq, to‘qimachilik mahsulotlarining massasiga singish va taqsimlanishi xususiyatlariga ega bo‘lganliklari tufayli, ularning yuqlari bir buyumdan ikkinchi buyumga suykalashi natijasida o‘tib qolishi mumkin;

– gazsimon neft mahsulotlari hamda motor yonilg‘ilarining ko‘p turlari yong‘in xavfini tug‘diradigan va portlovchi moddalardir.

Benzin, kerosin va dizel yonilg‘isining tarkibida tez uchuvchan uglevodorodlar borligi hamda serg‘ovak obyektlarga singishi va taqsimlanishini nazarda tutib, ular topilganda, musodara qilinganda o‘rab joylanganda, ashyoviy dalillar ekspertizaga tayyorlanayotganda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak: suyuq neft mahsulotlarining namunalari ma‘lum bir hajmdan (idishdan) tezlik bilan toza, quruq shisha yoki metall idish (butilka, flyaga)ga olinib, og‘zi tiqin (po‘kak, shisha, metall yoki plastmassa tiqin) bilan mahkam yopiladi va surg‘uch yoki yopishqoq tasma bilan yopishtiriladi. Agar voqea joyidan yoki gumon qilina-yotgan shaxsdan kichik idish (shisha, kanistr) topilgan bo‘lsa, uning og‘zini mahkam yopib ekspertizaga yuborish maqsadga muvofiqdir. Basharti, idishni yopish iloji bo‘lmasa (chelak, neft mahsuloti solingan bochka), u holda suyuqlikning og‘zi mahkam yopiladigan bir necha idishlarga solib, bo‘shagan idishni ham poletilen xaltaga joylab, uning og‘zini bog‘lab, yopishtirib, hammasini ekspertizaga yuborish kerak.

Moylar, yog‘lash uchun ishlatiladigan materiallar, mazut og‘zi buraladigan qopqoqli yoki shisha, po‘kak, plastmassa tiqinli idishga solinishi kerak.

Qattiq neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallarining namunalarini poletilen yoki qalin qog‘ozli paketga joylab, paket og‘zi mahkam bog‘lanadi. Agar yo‘lning to‘shamasidan namunalar olinayotgan bo‘lsa, u holda namunalar olish chizmasi va bayonnomasi tuzilib, ekspertga uning nusxasi taqdim etiladi.

Har xil buyumlarda bo'lgan neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materillari ekspertizaga, iloji boricha, buyum (kiyim, o'qotar yoki sovuq qurol, transport vositasining olingan qismlari) bilan birga yuboriladi. Ularni o'raganda, joylaganda neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallari yo'qolib ketmasligi chorasini ko'rish kerak. Shu maqsadda kiyimdagi neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallaridan vujudga kelgan dog'lar yupqa polietilen material bilan yopilib, cheklab qo'yiladi.

Yong'in bilan bog'liq bo'lgan ashyoviy dalillar (yongan taxta, kul, kuya) dastlabki yong'in boshlangan nuqtasini o'z ichiga qamrab olgan (2-4 m atrofidagi) joydan olinadi, solishtirish uchun esa yong'in boshlangan joydan ancha nari masofadan (2-4 m dan ortiq) namunalar olinadi. Bunday hollarda qaror bilan birga voqea joyini ko'zdan kechirish, namunalar olish qaydnomalari, namunalar olish chizmasi, voqea joyi surati ekspertga taqdim etiladi. Bundan tashqari, ashyoviy dalillar yong'in bo'lgandan keyin qancha vaqt o'tganda olingan va ular qanday tashqi muhit ta'sirida bo'lganligi (yong'ir, qor, quyosh) haqida ma'lumotlar bo'lishi shart. Yong'in ro'y bergan joydan olingan ashyoviy dalillar (yongan paxta, kul, kuya, ichida neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materillari bo'lishi mumkin bo'lgan idishlar) poletilen pakatlarga joylanib, yong'in boshlangan joy aniqlangandan keyin ekspertizaga yuboriladi.

Agar neft mahsulotlari va yonilg'i moylash materiallarining qoldiqlari taxta, mato va tuproqqa singib ketgan bo'lsa, namunalar olinayotganda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

a) *yongan paxta namunalarini olish*. Neft mahsulotlari qolgan qurilish inshootlarining silliq qismida tekshirish uchun olinayotgan buyumning 1 mm chuqurlikdan olingani kifoya. Yoriqlar va do'ppayib chiqqan joylarni o'yib yoki chopib olib, qipiqnlarni ham tekshirishga yuborish zarur. Neft mahsulotlarining qoldig'i yog'ochning kesilgan joyida bo'lsa, uni butunligicha 9-10 sm qalinlikda olish kerak. Agar ularning qoldig'i yog'ochda aniq chegaralangan bo'lsa, qirib olinadi. Namunalarni butulay yongan ko'mir bo'lib qolgan joydan emas, balki chala yongan sathlardan olish kerak, chunki neft mahsulotlari butunlay yonib ketgan joyda saqlanib qolmaydi;

b) *yongan matolardan namuna olish*. Jun, charm, ip gazlamalari yongandan keyin ham neft mahsulotlarining qoldiqlarini saqlab qoladi, shuning uchun ekspertizaga yonmagan bo'laklar bilan yongan namunalar ham taqdim etilishi kerak. Namunalar yongan yumshoq mebdan olinayotgan bo'lsa, bunda jildning tagidagi matodan hamda paxta, vatin, porolon, mebelning taxtasidan namuna olish maqsadga muvofiq. Quruq (kontrol) namunalar ham olinishi kerak;

v) *tuproq namunalari olish*. Neft mahsulotlarining qoldiqlari bor deb taxmin qilinayotgan tuproq 2-3 sm chuqurlikdan pichoq, kurakcha, shpatel yordami bilan olinadi;

g) *qorakuya namunalari* yong'in chiqqan joyga yaqin bo'lgan inshootlardan 5-6 nuqtadan pichoq yoki shpatel bilan qirib olinib, og'zi mahkam berkitiladigan shisha idishga solinadi. Qorakuya olingan joylar suratga olinib, bayonnomaga tikiladi. Namunalarning taxminiy og'irligi 0,2-0,5 grammdan kam bo'lmasligi kerak;

d) ko'rilayotgan ishning tafsiloti bo'yicha *neft mahsulotlarining qoldiqlari bo'lishi mumkin bo'lgan buyumlar, ashyoviy dalillar* bilan ishlaganda, ayniqsa, ehtiyotkor bo'lish kerak, garchi, ularda neft mahsulotlarining hidi bilinar-bilinmas bo'lsa ham. Bunday hollarda qog'oz, kiyim, kuya kabi ashyoviy dalillar tezda o'rab, mahkam berkitilgan idishga joylab, tekshirishga yuboriladi. Bunday hollarda ashyoviy dalillarni olish bayonnomasida yoki ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda ushbu dalillarni voqea sodir bo'lgandan qancha vaqt o'tgandan so'ng olinganligi, saqlash sharoiti hamda hodisadan keyin ishlatilgan-ishlatilmaganligini qayd etish kerak.

Ekspertiza o'tkazish uchun ashyoviy dalillardan tashqari quyidagilar yuboriladi:

– jinoiy ish materiallari (tergov materiallari);

– neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallarining taxminiy tabiati, turi, kelib chiqishi, buyumga qanday o'tib qolishi, saqlash sharoiti haqidagi ma'lumotlar;

– neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallari bilan ifloslangan boshqa buyumlar, voqea sodir bo'lgandan keyin musodara qilinguncha ishlatilganligi, sarf qilinganligi va o'zgarganligi haqidagi ma'lumotlar;

– taqqoslash uchun neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallarining namunalari.

Neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallarining tarkibi o'zgaruvchan bo'lganligi sababli ularning qoldiqlarini saqlagan kiyim yoki buyumlar, iloji boricha, tez vaqt ichida dastlab kimyoviy ekspertizaga yuborilishi kerak, so'ngra boshqa (sud-tibbiy, trasologik ekspertizalarga yuborilishi mumkin.

10-§. SHISHA VA UNDA TAYYORLANGAN BUYUMLAR EKSPERTIZASI

Shisha va undan tayyorlangan buyumlarning kriminalistik ekspertizasi kompleks ekspertiza hisoblanib, uning uslubiyoti fizikaviy-kimyoviy va trasologik tekshirish usullarini o‘z ichiga oladi. Bu ekspertizaning predmeti kriminalistika va shisha tayyorlash texnologiyasi sohasidagi maxsus bilimlar asosida ko‘rilayotgan ish bo‘yicha ahamiyatli vaziyatlarni aniqlashdir.

Ekspertizaning vazifalari identifikatsion va noidentifikatsion masalalarni hal qilishga qaratilgan:

– shisha siniqlarining zarrachalarini turli predmet tashuvchi ashyolarda topish, ularning tabiatini hamda boshqa materiallar bilan farqni aniqlash;

– shisha siniq zarrachalarining qaysi buyumga tegishligini, qaerlarda qo‘llanishi, shisha bo‘lakchalarining bir butunlikka yoki buyumga tegishligini aniqlash, tayyorlash uslubini topish.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi savollarga javob topish lozim:

Noidentifikatsion masalalarni hal qilish uchun:

– predmet-tashuvchilarda shishaning zarrachalari (mikrobo‘lakchalari) bormi.

Identifikatsion masalalarni hal qilish uchun:

– ekspertizaga taqdim qilingan shisha bo‘laklari buyumlarning qaysi turiga mansub;

– shisha idishning bo‘lakchalari (zarrachalari) va jabrlanuvchining yarasidan olingan zarrachalar umumiy turkumga yoki guruhga egami.

Ekspertiza obektlari. Ushbu ekspertizaning obyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– shisha buyumlar, ularning siniqlari va mikrozarrachalari;

– yo‘l-transport hodisalarini tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar: transport vositalarining uzoqni va yaqinni ko‘rsatuvchi va yoritish chiroqlari, avtomobilning oldi va orqa himoya oynasi, toblangan oynastalinit va uch qavatli oyna-tripleks;

– deraza oynalari va oynaning boshqa turlari ko‘zoynak qurilish oynalari, tosh oyna va boshqalar), oynaning kichik zarralari.

Ish bo‘yicha ashyoviy dalil sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan, voqea joyida qolgan shisha siniqlarini tezda yig‘ib olish zarur, aks holda transport vositalarining harakati natijasida ular yo‘qolib ketishi va boshqa joyga o‘tib qolishi mumkin.

Voqea joyini kuzatish davomida hammasi siniq shisha bo‘lakchalari terib olinadi, chunki ularning qaysi biri tergov qilinayotgan voqeaga taalluqliligi faqat ekspert tadqiqoti natijasida aniqlanadi. Gumon qilingan transport vositalardan ham o‘z vaqtida shisha siniqlarini olish zarur, siniqlarni avtomashina saloni ichidan zarba etkazilgan faradan, bamperdan, oldi bezakning tashqi qismidan va chiroqlar uyasidan qidirish kerak. Agar faralar, yon tomon oynalari sinmagan bo‘lsa, ularni tekshirib ko‘rish, ya’ni o‘zgartirib qo‘yilgan-qo‘yilmaganligini aniqlash kerak. Voqea joyidan terib olingan shisha siniqlari ho‘l bo‘lsa avval quritiladi. Har bir shisha sinig‘i qog‘ozga yoki paxtaga o‘raladi. Agar buyumlarda shisha sinig‘ining kichik zarralarini topish zarur bo‘lsa, unda buyumlarning o‘zi alohida-alohida polietilen xaltachalarga solib tekshirishga yuboriladi. Ashyoviy dalillar qay ahvolda topilgan bo‘lsa (obyekt yuzasida har xil moddalar yoki yuzasi ifloslangan bo‘lsa va hokazo), shundayligicha ekspertizaga yuborilishi kerak.

11-§. MAXSUS KUKUNLAR EKSPERTIZASI

Korrupsiya, poraxo‘rlik, firibgarlik va tovlamachilik kabi jinoyatlarni ochish va tergov qilish murakkab hisoblanadi. Ko‘pincha pora olish va berish hech qanday guvohlarsiz sodir bo‘ladi. Shuning uchun tergov idoralari bu jinoyatlarni ochishda hozirgi zamon kriminalistika vositalaridan foydalanadilar. Ular qatorida maxsus kukunlar va markerlar (qalamlar) ekspertizasi keng qo‘llaniladi.

Ko‘zga ko‘rinmaydigan maxsus kukunlar (lyuminofor) va maxsus markerlar (qalamlar)dan foydalanish gumondor shaxsni jinoyat sodir etilgan vaqtning o‘zida qo‘lga olishga imkon beradi. Lyuminofor moddalar sifatida FK-6, B-3S, 490 RT, 540 T, 458 T va 440 T rusumli maxsus kukunlar ishlatiladi. Ular ultrabinafsha nurlar (UB) ta’sirida har xil nurlanish xususiyatiga ega bo‘lib, ularni tashuvchi turli buyumlar (pullarda, qo‘ldan olingan surtmalarda, kiyim sathlarida, stol tortmasi, kitob orasida, qog‘oz ichida va h.k.)da har xil rangda nurlanadilar. Bunday kukunlar ashyoviy dalillarda bor-yo‘qligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar sud kimyoviy ekspertiza doirasida olib boriladi. Bunda ekspertlar oldiga hal etish uchun quyidagi savollar qo‘yiladi:

– ekspertizaga taqdim etilgan ashyoviy dalillar (pul kupyuralarida, kiyimlar sathida, qo‘llardan artib olingan surtmalarda va h.k.)da maxsus kukun izlari mavjudmi;

– ekspertizaga taqdim etilgan pullarda maxsus kukun va maxsus qalam izlari mavjudmi, agar mavjud bo‘lsa ular taqqoslash uchun yuborilgan maxsus kukun va maxsus qalam namunalari bilan turdoshmi;

– ekspertizaga taqdim etilgan pullardagi «Pora» yozuvi namunasi taqdim qilingan maxsus qalamning yozuvi bilan bir xilmi?

Yuqorida qayd etilgan savollarni hal qilishda UB-nurlari ostida tekshirish uslubi, SPESORD-200 rusumli asbobda UB-spektral tahlil va mikroskop-spektrofotometr «LEICA DM RXA MPV SP» uskunasi yordamida ashyoviy dalillarning fluoressent tahlili – solishtirish tadqiqotlari olib boriladi. Bunda maxsus kukunlarning nurlanish rangi va ularning yutilish spektrlari maksimumlarining bir-birlariga mos kelishi bo‘yicha tekshirishlar olib boriladi.

Shuni ta’kidlash joizki, ekspertiza tadqiqotlarining tez va samarali bajarilishi – ekspertizaga taqdim etilgan ashyoviy dalillarning o‘z vaqtida to‘g‘ri olinishiga bog‘liqdir.

Maxsus kukunlar ekspertizasini tayinlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ekspertizaga yuboriladigan ashyoviy dalillar (pul kupyuralari, kiyim, konvert, gazeta va h.k.) bevosita olingan joyida (masalan, gumondor shaxs ushlangan erda) ko‘zdan kechiriladi. Bunda ashyoviy dalillar bilan ishlashda ehtiyotkorlik zarur, chunki undagi maxsus kukunlar izlari kam bo‘lib, yo‘qolib ketishi mumkin. Ashyoviy dalillar xolislar ishtirokida qadoqlanadi va tegishli izohnoma tergovchi, xolislar tomonidan imzolaniadi. Ekspertizaga ashyoviy dalillar bilan birga quyidagi hujjatlar taqdim qilinishi lozim: ashyoviy dalillarga maxsus kukunlar bilan ishlov berish bayonnomasi, voqea joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi, ashyoviy dalillarni olib qo‘yish bayonnomasi. Ushbu hujjatlarning kseronusxalari ekspertga taqdim etilishi zarur.

Maxsus kukun (qalam) turdoshligini aniqlash masalasi qo‘yilganda ekspertizaga, shuningdek, ashyoviy dalilga ishlov berilgan kukun va ularga yozuv yozilgan qalam namunalari yuboriladi.

12-§. POLIMER MATERIALLAR (PLASTMASSALAR, REZINA, ELIMLI MATERIALLAR) VA ULARDAN TAYYORLANGAN BUYUMLAR EKSPERTIZASI

Odam o'ldirish, zo'rash, o'g'irlik, yo'l-transport hodisalari kabi jinoiy ishlar bo'yicha polimer materiallar (plastmassalar, rezina, elimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar ko'p tarqalgan ashyoviy dalillardir.

Transport vositalarining detallari, elektrotexnika, kabel sanoati (elektr simlarining izolyasiya qatlami, materiali, izolyasiya tasmalari) mahsulotlari, avtomobil va oyoq kiyimi (rezina, sun'iy charm, plastmassa), attorlik sanoatining mahsulotlari (tugmalar, taqinchoqlar), polimer plyonkalar, sintetik tolalar va elimlar (kleylar) ushbu ekspertizaning obyektlari hisoblanadi. Ushbu turdagi ekspertizaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- polimer materiallarning zarrachalarini, qoldiqlari (masalan, avtomashina farasining polimer qismining zarrachasi)ni, plastmassa bo'lakchasini, polimer qoplamalari va shu kabilarni birorta buyum yuzasida topish.

Plastmassa va polimer materiallarni izlab topish, ajratib olish va ekspertizaga materiallarni to'g'ri tayyorlashni sinchkovlik bilan o'tkazish sud-ekspert tadqiqoti samaradorligini belgilaydi. Ushbu tadbirlarni bajarishda quyidagilarni yodda tutish zarur:

- buyumlar va ular bo'lakchalarini topish, ularning yuzasidagi plastmassa izlari va qoldiqlariga e'tibor berish;

- dastlabki tadqiqot o'tkazib solishtirish uchun obyektlarni tanlab (rangi, ko'rinishi, o'lchami va shu kabilarni taqqoslab) olish;

- ashyoviy dalillar olinganda ularning holatini (qanday joylashganligini) aniq belgilash;

- taqdim etilgan obyektlarni tadqiqotga tayyorlash (tartib belgisini qo'yish) va ekspertiza oldiga hal etish uchun qo'yiladigan savollarni aniq va to'g'ri ifodalash.

Plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi tayinlanganda quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:

- polimer materialning kimyoviy tarkibi va uning qaerda qo'llanilishi (ishlatilishi) aniqlanishi zarur.

Sifatsiz mahsulotlar, o'g'irlik, yong'in chiqishida va fojea holatlarini aniqlashda kabel sanoatining mahsulotlari (elektr simlari, shnurlar, kabellar) asosiy daliliy manba hisoblanadi.

Rezina va undan tayyorlangan buyumlar kriminalistik ekspertizasi-ning obyektlariga rezina buyumlar va ularning qismlari, mikrozarralari va muayyan buyum yuzasida qolgan izlari, yonish qoldiqlari va boshqalar kiradi.

Quyidagi diagnostik masalalarga oid vazifalarni ushbu turdagi ekspertiza oldiga hal qilish uchun qo'yish mumkin:

– moddaning tabiati va uning keyingi tekshiruvlar uchun yaroqliligini aniqlash;

– buyumlardagi shikastlanish sabablarini aniqlash.

Shu bilan birga, taqqoslash (identifikatsiyalash) mazmunga ega masalalar ham echilishi mumkin:

– turli obyektlarning bir tur va guruhga mansubligini aniqlash;

– kelib chiqish manbalarini va aynan o'xshashligini aniqlash.

Yuqorida misol tariqasida keltirilganlar tez-tez uchrab turadigan vazifalar bo'lib, jinoiy ishlar bo'yicha tergov olib borish jarayonida yuzaga keladigan holatlarga oydinlik kiritish uchun qo'yilishi mumkin bo'lgan boshqa vazifalarni cheklamaydi.

13-§. ODAM DNK SUD-BIOLOGIK EKSPERTIZASI

Hozirgi fan va texnika rivojlanib va takomillashib borayotgan davrda sudga oid identifikatsion tadqiqotlar sohasida ham yangi tarmoqlar rivojlanib, sud, tergov, ekspertiza faoliyatida samarali qo'llanilmoqda. Bular orasida, ayniqsa, odam biologik materiallarining DNKsi (dezoksiribonuklein kislotasi) asosida o'tkaziladigan ekspertiza alohida o'rin egallaydi hamda huquqni muxofaza qilish organlari faoliyatidagi eng dolzarb masalalarni hal etishda xizmat qilmoqda.

Odam DNKsi o'zida nasliy xususiyatlar haqida axborotni saqlovchi, atrof-muhit sharoitiga chidamli mustahkam biologik polimerlar katoriga kiradi. Odanning biologik to'qimalari tananing qaerida joylashganidan qat'i nazar kerakli nasliy ma'lumotlarni bera oladi. Jumladan, qon, maniy (sperma), tana va teri to'qimalari, soch tolasi va shu kabilarning DNKsi bir xildir. Odamlarning genlariga ko'ra identifikatsiya qilish jarayoni ulardan biologik material namunalari olishdan boshlanib, DNKsi ajratilgandan so'ng raqamlar yordamida ifodalangan faqat muayyan shaxsga xos DNK kodi olinishi bilan tugaydi. DNK kodi har bir organizmda o'ziga xos (individual) xususiyatga ega bo'ladi.

Bir urug'dan hosil bo'lgan egizaklar homilasidan tashqari hollarda, er yuzida DNK tuzilishi xususiyatiga ko'ra bir xil bo'lgan ikki odam bo'lmasligi amaliy va nazariy jihatdan isbotlangan ma'lumotdir.

Tergov va sud organlari faoliyati uchun bu xildagi tadqiqotlarning ahamiyati shundaki, jinoyat hodisasi yuz bergan joylardan topib olingan qon, sperma va boshqa moddalarning DNK molekulasini tuzilishi bilan shubhalanuvchi shaxsning DNK tuzilishi bilan solishtirganda muayyan shaxsning aynanligi yoki farq qilishi qat'iy tasdiqlanadi. Qon, suyak, siydik va boshqa moddalarni an'anaviy biologik tadqiqoti odanning guruhviy mansubligi, ya'ni uning qoni qaysi guruhga mansubligi belgilanadi. DNK tahlilida muayyan shaxsning qoni, teri to'qimasi, soch tolasi va boshqa biologik materiallari ekanligi qat'iy tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Shu bilan birga, odam DNKsi asosida faqat uning shaxsi aniqlanibgina qolmasdan, uning boshqalar bilan qondosh-qarindoshlik masalasi ham hal qilinadi.

DNK ekspertizasini tayinlash zarurati qidiriluvchining shaxsini aniqlash, noma'lum murdaning (yoki murda qoldiqlari bo'yicha) shaxsini aniqlash, otalik-onalik va boshqa biologik jihatdan qarindoshlik masalalarini hal etishdan kelib chiqadi.

Biologik tadqiqot obyektlari bo‘lib odamning tanasidagi har bir qism yoki moddalari, qon va qon izlarini o‘zida saqlagan buyum, soch, so‘lak va boshqalar xizmat qiladi.

Qon moddalari va izlari odatda jinoyat sodir bo‘lgan joylarda topiladi. Ular ko‘rinarli bo‘lganligi va tarkibida nasl xususiyat axborotini ko‘p yillar davomida (bir necha 100 yillargacha) saqlay olish sifati tekshirish uchun eng qulay obyekt bo‘lib hisoblanadi.

Odamning maniy (sperma)si ham qon kabi DNKning manbasi bo‘lib, nisbiy biologik xususiyatlarga juda boydir. Lekin maniy rangsiz bo‘lganligi sababli uni topish, olish ishlari murakkabroq. Amaliyotda maniy maxsus bo‘yovchi moddalarni qo‘llash bilan ko‘rinarli qilib, ashyoviy dalil bo‘lgan buyumlari bilan birgalikda olinadi. Sperma ham qon kabi o‘zidagi genetik (nasliy) axborotni ko‘p yillar davomida saqlash xususiyatiga egadir.

So‘lak moddasining DNKsi odamning og‘zidan olinadigan epteliya xujayralari tarkibida bo‘lib, u o‘zida saqlagan buyumlar bilan birgalikda olinadi. Bunday buyumlar ko‘p hollarda chekilgan sigaret qoldig‘i, jinoyatchilar ishlatadigan niqob-maskalar, odamning labi tekkan stakan, piyola kabi idishlar, chaynalgan saqichlardir. Bulardan tashqari, DNK uchun odamning biologik materiallaridan ayniqsa soch tolalari, suyak va boshqa turli yumshoq organ to‘qimalari va shu kabilar qimmatli tadqiqot obyektlari bo‘lib hisoblanadi.

DNK asosida tadqiqot uchun odam sochining ildiz qismi bilan bo‘lganlari yaroqlidir, uzilgan, kesilgan, soch tolalarida nasliy xususiyat materiali bo‘lmaydi.

Jinoyat sodir bo‘lgan joylarda (portlash, yonish, yo‘l-transport hodisalari natijasida) shaxsi noma‘lum murda, tananing (murdaning) ayrim qismlari, suyaklar va boshqa biologik obyektlar qolishi mumkin. Bu obyektlardagi barcha organ va to‘qimalar hujayralardan iborat bo‘lganligi sababli, ular DNK tahlili uchun muhim tadqiqot materiali hisoblanadi.

DNK ekspertizasi uchun yuboriladigan obyektlarni olish, saqlash, joylashtirish va transportirovka qilish qoidalarini bajarish alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, tadqiq etiluvchi biologik materiallardagi muhim bo‘lgan nasliy xususiyatlar atrof-muhit va iqlim sharoiti ta‘siri natijasida zararlanishi, buzilishi yoki umuman yo‘qolishi mumkin va oqibatda nasliy turlash masalasini hal etishda ular yaroqsiz bo‘lib qoladi.

Ekspertiza uchun olingan biologik materialni nam va zax bo‘lgan joylardan va quyosh nurlari ta‘siridan saqlash lozim, chunki bu sharoitlar uning muhim identifikatsion xususiyatlariga salbiy ta‘sir etishi mumkin.

Shuningdek, olingan obyektlar uzoq muddat saqlanmasdan tadqiqotga o'z vaqtida yuborishi lozim.

Tekshiriluvchi biologik materiallar, xususan, qon, so'lak, sperma kabilarni ularni o'zida saqlagan (aks ettirgan) buyumlar bilan birgalikda olish tavsiya etiladi. Bular kiyimlar va ularning qismlari, mayda predmetlar va boshqa turli narsalar bo'lishi mumkin. Moddalarni o'zida saqlagan predmetlarni olishning iloji bo'lmagan hollarda moddani (masalan qonni) tozalangan skalpel bilan qirib olinadi yoki qon izlaridan tozalangan (distillangan) suvda toza paxta tamponini ho'llab (namlab), qon izlari paxta tamponiga ko'chirib olinadi.

DNK ekspertizasi o'tkazishda ishlatiladigan texnologiya juda murakkab va nozik bo'lganligi uchun tadqiqotga yuboriladigan material va obyektlarni olishda qo'llaniladigan vositalar toza bo'lishi lozim. Masalan, qaychi, qisqich, shpatel, o'tkir asboblarni har bir obyektни olishdan oldin va olib bo'lgandan keyin ham spirt bilan tozalab yuvish shart. Spirt bilan tozalangan asboblardagi spirt moddasi bug'lanib qurib qolgandan so'ng ular ishlatilishi lozim.

Tekshiriluvchi obyekt materiallariga begona molekula, mikroblar va boshqa moddalarning zarrachalari qo'shib ketmasligining oldini olish uchun ularga qarab yo'talish, aksirish, puflash kabi holatlarga yo'l qo'y-maslik kerak.

Ekspertiza materialini tayyorlovchi va tadqiqotlarni o'tkazuvchi mutaxassislar sanitariya-gigiena qoidalariga muvofiq oq matodan tayyorlangan niqoblarda ishlaydilar.

Ekspertizaga olingan biologik materiallar tegishli sharoitda saqlanishi lozim. Jumladan, odam organizmidan hosil bo'ladigan suyuqlik moddalarni juda issiq yoki nam-zax bo'lgan joyda, issiqlik manbalari oldilarida, elektr-gaz plitalari bor bo'lgan va quyosh nuri to'g'ridan tushib qizdiradigan joylarda saqlash mumkin emas. Bunday sharoit biologik materiallar tarkibi o'zgarib, ba'zida esa DNK molekulasi buzilib ketishiga sabab bo'ladi. Obyektlarni 4⁰S haroratda saqlash tavsiya etiladi. Shu bilan birga, olingan material va obyektlarni ekspertiza muassasasiga yuborishni kechiktirmaslik, ya'ni ko'p vaqt saqlamaslik lozim, chunki vaqt ham boshqa nobob sharoitlar kabi tekshiriluvchi obyektlarning sifatiga ta'sir etadi.

Ekspertizani tashkil qilish, tayinlash olingan obyektlarni (tadqiq etiluvchi, namunalar) va rasmiylashtirish boshqa turdagi ekspertizalar kabi O'zbekiston Respublikasi JPKning umumiy qoida-normalari asosida o'tkaziladi.

DNK ekspertizasi hal qiladigan masalalar turli xil bo‘lib, tadqiqot obyektlarining klassifikatsion xususiyatlarini, masalan, shaxsning jinsini belgilash, jinoiy harakatning sodir qilinish holatlarini (guruh shaxslar tomonidan zo‘rlab nomusga tojovuz qilinganligini) aniqlash va identifikatsion vazifalarni hal etishdan iboratdir. Bu masalalarni taxminan quyidagi savollar tariqasida keltirish mumkin:

- tadqiqotga yuborilgan biologik materiallar tarkibida genetik material (DNK)ni olish mumkinmi;

- ekspert tadqiqotiga yuborilgan biologik materiallardan (ichki organ, yumshoq va suyak to‘qimalari va hokazo) olingan DNK tadqiqotiga yaroqlimi;

- taqdim etilgan odam biologik materiallaridan uning genotipini aniqlash mumkinmi;

- yuborilgan biologik material manbaining jinsi;

- tekshiriluvchi odamning biologik materiali shubhalanuvchi shaxslarning qaysi biriga mansub;

- hodisa joyidan olingan qon namunalari bir yoki har xil odamlarga mansubmi;

- odamning murda bo‘laklari, alohida tana a‘zolari bir shaxsga tegishlimi;

- tekshiriluvchi sperma bitta yoki bir necha shaxsga mansubmi;

- mazkur bola (chaqaloq, homila) kimdan (aynan shu ayol, erkak, shu ota-onadan) tug‘ilgan;

- ekspertizaga yuborilgan bir necha shaxslarning biologik materiallari bo‘yicha ularning qarindoshlik holati (opa-singillik, aka-ukalik, nabiralik, buvi-buvalik)ni aniqlash.

DNK ekspertizasi eng yangi zamonaviy texnik vositalar yordamida o‘tkazilib, huquqni muhofaza qiluchi organlarning og‘ir jinoyatga qarshi olib borayotgan ishlarini hal etishda katta yordam ko‘rsatmoqda.

14-§. SUD-BIOLOGIK EKSPERTIZALARI

Sud biologik ekspertizalari ikki turga boʻlinadi:

- sud-botanik ekspertizasi – oʻsimliklarni tekshirish;
- sud-zoologik ekspertizasi – hayvonlar bilan bogʻliq boʻlgan obyektlarni tekshirish.

Odam oʻldirish, zoʻrlash, oʻgʻrilik, yongʻin sodir etish, yoʻl-transport voqealari, noqonuniy tabiblik, zaharlash kabi jinoiy ishlarni koʻrish jarayonida sud-biologik ekspertizasi tayinlanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- biologik obyektlarning zarralarini, izlarini topish;
- uning tabiatini aniqlash;
- obyektning qaysi tur, turkumga kirishini bilish;
- bir necha obyektlarning maʼlum bir tur va turkumga mansubligini aniqlash maqsadida taqqoslab tekshirish;
- obyektning vaqtincha xususiyatlari (rivojlanish bosqichi)ni aniqlash;
- obyektning oʻzgarish sabablari (maʼlum bir sharoitda saqlash, mexanik taʼsiri)ni aniqlash.

Botanik ekspertiza. Botanik ekspertizaning predmeti boʻlib jinoyat ishlari boʻyicha isbotlov ahamiyatiga ega boʻlgan va maxsus botanik va kriminalistik bilimlar asosida aniqlanadigan holatlar hisoblanadi.

Botanik ekspertizaning obyektlari boʻlib oʻsimliklar – tekshirilayotgan hodisa sharoitlarining botik tarkibi (suv oʻtlari, qoʻziqorin, oʻt-oʻlan, barg, mox, daraxt, uning tanasi va ildizlari, butalar, oʻsimliklardan olinadigan ziravorlar, oʻsimliklardan olinadigan mahsulotlar – sok, saqich).

Sud-botanik ekspertizasining vazifalari:

- 1) taqdim etilgan buyum (predmet)lardan oʻsimlik kelib chiqishiga ega obyektlarni aniqlash, ularni tasniflash va idenfikatsiya qilish;
- 2) ashyoviy dalillar – botanik obyektlarning oʻziga xos oʻzgarishlaridan tekshirilayotgan hodisaning vaqtini aniqlash;
- 3) biologik obyektlarni, ularda mavjud boʻlgan izlardan oʻzaro taʼsirlashish mexanizmini aniqlash;
- 4) tekshirilayotgan hodisaning mexanizmi elementlarini aniqlash;
- 5) hodisaning yuz berish jarayoni (dinamikasi)ning botanik tarkibiy qismlariga koʻra qayta tiklash.

Botanik ekspertizalarda hal etiladigan savollarning taxminiy roʻyxati:

- tadqiqotga taqdim etilgan obyekt oʻsimlikmi, agar oʻsimlik boʻlsa, uning turini aniqlang;

- taqdim etilgan o‘simlikning bir qismi aniq bir turdagi o‘simlikka mansubmi;
- taqdim etilgan o‘simlikning bir qismi, o‘simlikning qanday rivojlanish jarayonida ajratib (kesib, qirqib, sindirib) olingan;
- hodisa joyidan olingan va gumon qilinuvchining kiyimlaridan olingan o‘simlikning qismlari ilgari bir guruhga tegishli bo‘lganmi;
- gumon qilinuvchining kiyimlari aniq bir turdagi o‘simlik changlari mavjudmi;
- taqdim etilgan o‘simlik urug‘lari qanday o‘simlikka tegishli.

15-§. EKSPERTIZA NATIJALARI VA EKSPERT XULOSASINI HUJJATLASHTIRISH

Ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish quyidagi ikki xilda usulda amalga oshirilishi mumkin:

- ekspert xulosalarini baholash;
- ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish va natijalarni rasmiylashtirish faoliyatini nazorat qilish¹.

Ekspert xulosalarining obyektivligini baholashda uning bu ishdan manfaatdor bo‘lmagan, maxsus bilimlar asosida va tekshirish natijalariga ishongan shaxslar tomonidan berilgani asos bo‘ladi. Bu talabning buzilishiga ekspertning isbotlanmagan, rad qilingan va to‘liq bo‘lmagan dalillar asosida, ekspert vakolati doirasiga kirmaydigan xarakterliklar doirasida baholash va xulosa berish kiradi.

Ekspert majburiyatiga ekspertiza obyektini saqlash va to‘liqligini ta’minlash kiradi. Agar obyekt ekspertiza qilish jarayonida to‘laligini yo‘qotgan yoki qisman buzilgan yoki shakli o‘zgargan bo‘lib, buning natijasida qayta ekspertiza o‘tkazish imkoniyati qolmaydigan holatga kelishi mumkin bo‘lgan taqdirda, ekspert jinoyat ishini yuritayotgan organdan tegishli ruxsat olishi va bunday natijalarning bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantirib qo‘yishi shart.

Ekspert xulosalarini baholashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- ekspert-kriminalistika xizmatining rahbarlari tergov xizmati rahbarlari bilan hamkorlikda hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda ekspert ishtirokida olingan hamda ekspertiza tayinlash uchun taqdim etilgan ashyoviy dalillardan foydalanish faoliyatini birgalikda tahlil etishlari lozim;

- tergov xizmatlari tomonidan ekspertiza xulosalaridan jinoyatlarni ochish va tergov qilish faoliyatida qay darajada foydalanganliklarini muntazam tahlil qilib borishlari kerak;

- ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining har birini ish faoliyati ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish (masalan, o‘tkazilgan ekspertiza tadqiqotlarining miqdori, sifati, ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish faoliyati, qo‘yilgan savollarga javob berish sifati va shu kabilar);

¹ *Ивашко и др В.И. Деятельность экспертно-криминалистических подразделений органов внутренних дел по применению экспертно-криминалистических методов и средства в раскрытии и расследовании преступлений. – М., 1996. – С.104.*

– ekspert-kriminalistika xizmatining ekspertiza o‘tkazish, ekspertiza natijalari hamda ekspert xulosalarini rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirish masalalarini yig‘ilishlarda ko‘rib chiqish va muhokama etish, ularning faoliyatini baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ushu kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish va natijalarni rasmiylashtirish faoliyatini nazorat qilishda esa quyidagi tadbirlar orqali amalga oshirilishi lozim:

– ekspertiza o‘tkazishning muddati va sifatini nazorat qilish;

– ekspert-kriminalistika xizmati xodimlariga boshqa vazirliklar va idoralarning ekspertiza muassasalarida faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassislar tomonidan maslahatlar o‘tkazilishini tashkil qilish;

– ichki ishlar idoralari hamda boshqa organlarning etakchi muxassislari, amaliyot va nazariyot xodimlari ishtirokida, ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish masalalariga bag‘ishlangan davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar va yig‘ilishlar o‘tkazish;

– ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining xulosalarini muntazam ravishda, sohaning etakchi mutaxassislar tomonidan taqrizdan o‘tkazilishini tashkil qilish¹.

Yuqorida tashkiliy ishlarning ahamiyati ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirishda kattadir, jumladan, ekspertiza o‘tkazishning muddati va sifatini nazorat qilishda ekspert-kriminalistika xizmatining rahbari ekspert xulosalarining muddatlari, tadqiqotlarning to‘liqligi va har tomonlamaligi, yakuniy xulosalarning asoslanganligi va ularning qo‘yilgan savollarga mosligi, ko‘rgazmali materiallarning sifati, tadqiqot metodlarining to‘g‘riligi va samaradorligi nuqtai nazaridan tekshiriladi.

Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlariga boshqa vazirliklar va idoralarning ekspertiza muassasalarida faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassislar tomonidan maslahatlar o‘tkazilishini tashkil qilish esa obyektlarni tadqiqot qilishning xususiy metodikalari bo‘lmasa yoki etarlicha darajada ishlab chiqilmagan hollarda tergovchi tomonidan qo‘yilgan savollarga ilmiy asoslangan va ilm-fanning ilg‘or yutuqlariga asoslangan holda javob berish imkoni yaratadi.

¹ *Рисунков Н.К.* Криминалистика: проблемы и тенденция развития. – М., 2006. – С. 446.; *П.Т. Скорченко.* Криминалистика: технико-криминалистическое обеспечение расследования преступлений. – М., 2004. – С. 380.

Undan tashqari, ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining xulosalarini muntazam ravishda, sohaning etakchi mutaxassislari tomonidan taqrizdan o'tkazilishini tashkil qilishda murakkab va ko'p obyektli ekspertiza xulosalari, ularning fotojadvallari, tergovchining ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorlari taqrizga yuboriladi, taqriz natijasida aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ekspertlarning kelgusi faoliyatida inobatga olinadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni muhimdir:

– ekspertiza amaliyotini muntazam ravishda tahlil qilish va umumlashtirib borish zarur. Chunki, tahlil natijasida ushbu faoliyatdagi mavjud kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu taklif va tavsiyalardan ekspert-kriminalistika xizmatlarining kelgusi faoliyatida foydalanish, ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirishga sabab bo'ladi;

– ekspert-kriminalistika xizmati ish faoliyatida mavjud nazorat hujjatlar, hujjatlashtirish hamda ish yuritish faoliyatining to'g'riligi muntazam ravishda tekshirish. Bu faoliyat natijasida hisobga olish va ro'yxatga olish jurnallarini yuritish, ekspertiza natijalari va ekspert xulosalarini rasmiylashtirish jarayonining to'g'ri yuritilayotganligi aniqlanadi, kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligiga erishiladi;

– tadqiqot obyektlarini tekshirishda ekspertiza tadqiqotlari imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik holatlarini aniqlash va bunga nisbatan tegishli choralar ko'rish lozim. Chunki, bu holat ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining ish faoliyatida mas'uliyatsizlikni keltirib chiqaradi va natijada butun tizim samarasiz ish olib boradi.

16-§. EKSPERT XULOSASINI BAHOLASH VA UN DAN FOYDALANISH

Ekspert xulosasi – ish bo‘yicha dalillardan biri hisoblanadi. U sud, prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan barcha boshqa dalillar kabi baholanadi. Dalillarni baholash asoslari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasida keltirilgan: «Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o‘zlarining ichki ishonchlari bo‘yicha dalillarga baho beradilar. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e‘tirof etiladi. Dalillar belgilangan tartibda to‘plangan va ushbu Kodeksning 88, 90, 92-94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo‘lsagina, ular maqbul deb e‘tirof etiladi. Tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan dalillar ishonchli deb hisoblanadi. Isbotlanishi kerak bo‘lgan barcha va har bir holatning haqiqiylikini so‘zsiz tasdiqlovchi ishga oid barcha ishonchli dalillar to‘plangan bo‘lsa, ularning jami ishni hal qilish uchun etarli deb hisoblanadi», ya‘ni sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvni olib borayotgan shaxs dalillarni baholashda o‘zining ichki tuyg‘usiga, qonunga tayangan holda ko‘rilayotgan ishning tafsilotini har tomonlama chuqur va obyektiv o‘rganib, o‘z ichki tuyg‘usiga asoslanadi.

Har qanday dalillar sud, prokuror, tergovchi, surishtiruvni olib borayotgan shaxs uchun oldindan ko‘rsatilgan kuchga ega emas. Fuqarolik-protsessual kodeksida dalillarni baholashda xuddi shu prinsiplardan kelib chiqiladi (*O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 63-moddasi*).

Dalillarni baholayotgan shaxslarning qabul qilgan qarori to‘g‘ri ekanligi bo‘yicha ichki tuyg‘usi ish bo‘yicha to‘plangan hamma dalillarni xolisona ko‘rib chiqish natijalariga asoslanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, tushuntirilishi va asoslantirilishi lozim. Masalan, sud ko‘rib chiqqan dalillar bo‘yicha, xususan ekspert xulosasi asosida u yoki bu xulosaga kelgandan so‘ng o‘z fikrini hukmda (ajrimda) asoslab berishi kerak.

Dalillar, shu jumladan, ekspert xulosasi ham baholash jarayonining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatga ega, lekin dalillarni baholashning hamma bosqichlarida ham uning maqsadi va prinsiplari bir xil. Bunda surishtiruv organi, tergovchi, prokuror va sudga qo'yiladigan yagona talab – dalillar to'g'ri baholanishiga javobgarlikdir.

Ekspert xulosasini ichki tuyg'u asosida baholash obyektiv holatlarni inobatga olmasdan baholash degani emas. Bu jarayonda quyidagilar har doim tekshiriladi:

- ekspertiza tayinlanganda va o'tkazilganda jinoyat-protsessi va fuqarolik-protsessi qonunlarining talablariga rioya qilinganligi;

- zamonaviy fan nuqtai nazaridan berilgan ekspert xulosasi asoslan-tirilganligi;

- ekspertiza o'tkazilganda tadqiq qilingan materiallar, ularga qo'yi-ladigan talabga javob berishi, ekspertiza o'tkazilganda usul va metodlar-ning to'g'ri qo'llanilganligi;

- ish bo'yicha to'plangan dalillarga ekspert tomonidan aniqlangan faktlarning to'g'ri kelishi.

Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda protsessual qonunlarga rioya qilinganlikni baholash. Ekspert xulosasida aniqlangan faktlardan dalil sifatida faqat ekspertiza tayinlanishida va o'tkazilishida qonunga rioya qilingan bo'lsa foydalanish mumkin. Ekspert xulosasi baholanganda sud, prokuror, tergovchi yoki surishtiruvni olib bopgan shaxs quydagilarni aniqlashi lozim:

Xulosaning vakolatli shaxs tomonidan berilganligi. Qonun faqat u yoki bu masalalar bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslar tomoni-dan ekspertiza o'tkazilishiga ruxsat beradi. Hozirgi vaqtda ekspertlarni aniq ekspertiza turlari bo'yicha mutaxassislar bo'lganligi sababli tergov-chi (sud) tadqiqotlar ekspert muassasasining xodimi tomonidan o'tka-zilganligini hamda ushbu shaxs maxsus savollarni hal qilishga vakolatli yoki yo'qligini ham aniqlashi lozim. Ekspert malakasi haqidagi ma'lu-motlar xulosaning kirish qismida bayon etilishi kerak.

Ekspert muassasasining rahbari tomonidan ekspert bila turib yolg'on xulosa berganligi, xulosa berishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirilganligi bo'yicha yozma majburiyat (tilxat) ham xulosaning kirish qismida beriladi.

Agar ekspertiza dastlabki tergov jarayonida o'tkazilgan bo'lsa, eks-pertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan ish materiallari bilan ekspertning tanishishiga imkon yaratilganligi, qo'shimcha material taqdim qilish zarurligi haqidagi ekspert talabnomasi qondirilganligi, ayblanuvchi

(gumon qilinayotgan shaxs)ning manfaatini ta'minlovchi qonun talablariga rioya qilinganligi ham aniqlanishi lozim. Shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha tayinlangan va o'tkazilgan ekspertiza xulosalarini baholashda, fuqarolik-protsessual kodeksining talablariga ekspertiza o'tkazilganda (xususan, ishni ko'rib chiqishga tayyorlash bosqichida) rioya qilinganligi ham e'tibor qaratiladi.

Xulosani to'g'ri baholash uchun uning tarkibi bo'lgan kirish, tadqiqot va yakun qismlarini ko'rib chiqish lozim.

Kirish qismini baholash. Xulosaning kirish qismi baholanganda, avvalo, ekspertiza qaysi hujjat asosida o'tkazilganligini aniqlash kerak. Ekspertiza o'tkazish uchun faqat ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim) protsessual asos bo'lib xizmat qiladi. Qaror (ajrim) bilan tanishganda, xulosaning kirish qismida hamda qaror (ajrim)da tekshiriladigan hujjatlar, materiallar, obyektlar va ularning nomlanishi to'g'ri qayd etilganligini aniqlash lozim.

Xulosada, ekspert oldiga hal qilish uchun qo'yilgan savollarga jiddiy ahamiyat berish lozim, chunki ularni tahlil qilgandan so'ng ekspert oldiga qo'yilgan vazifalarning to'g'ri tushunganligi haqida mulohaza qilish mumkin bo'ladi.

Agar ekspert savol shaklini o'zgartirgan bo'lsa yoki savollarni guruhlariga ajratgan bo'lsa, tergovchi ekspert oldiga qo'yilgan savollarning ma'nosi o'zgarmaganligini tekshirishi lozim.

Identifikatsion tadqiqotlar o'tkazilganda taqqoslash uchun taqdim etilgan namunalarni tanlab olish qoidalari ta'minlanishini va shu namunalarning sifati, to'liqligini tekshirish lozim, chunki xulosaning to'g'riligi aynan shunga bog'liq. Undan tashqari, ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da namuna sifatida qayd etilgan hujjatlar qo'llanilganligi aniqlanadi.

Xulosaning tadqiqot qismini baholash. Xulosaning tadqiqot qismi baholanganda avval ekspert foydalangan metodlarning ilmiy jihatdan asoslanligi aniqlanishi kerak. Chunki hukm asosiga faqat ilmiy metodikalarga tayangan holda o'tkazilgan ekspertiza xulosasi olinishi mumkin.

Ekspertiza xulosasini tasdiqlash uchun u yoki bu ilmiy asos keltirilganda uning afzalligi izohlanishi va xulosani baholashda shaxslarga bunga ishonch hosil qilishi uchun imkon yaratishi lozim. Masalan, sud-xatshunoslik ekspertizasida yozuvning ishlanish darajasini qisqa vaqt ichida o'zgartirish mumkin emasligi aniqlangan, bu turg'un belgi hisoblanadi. Shuning uchun agar taxminiy ijrochining yozuvini ishlov darajasi tadqiq etilayotgan imzoning ishlov darajasidan ancha past bo'lsa, faqat

ishlov darajasi bo'yicha imzoni taxminiy ijrochi bajarmaganligi haqida xulosa qilish mumkin.

Ekspert xulosasi ilmiy asoslantirilganligini baholash, ekspert tadqiqot uchun qo'llagan metodlarni baholash bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot uslublariga amal qilmaslik ekspert xulosasini rad etishga va takroriy ekspertiza tayinlashga asos bo'ladi.

Ekspertning yakuniy xulosalarini baholash. Bunda, dastlab ekspert hamma qo'yilgan savollarga javob berganligi, so'ng xulosa tadqiqot qismida keltirilgan ilmiy asoslarga mosligini tekshiradi.

Qo'yilgan savollarga javob tushunarli va aniq bo'lishi lozim. Agar ekspert qo'yilgan savollarning hammasiga javob bermagan bo'lsa, qo'shimcha ekspertiza tayinlanishi mumkin.

Ekspert oldiga qo'yilgan savollarga to'g'ri va to'liq javob berganligini xulosani o'rganib, kirish va tadqiqot qismidagi axborotlarni taqqoslab aniqlash mumkin. Agar xulosaning kirish, tadqiqot va yakuniy qismlari mantiqan bir-biriga zid bo'lsa, uni hukm asosiga kiritib bo'lmaydi. Ba'zi bir tergovchi (sud)lar faqat ekspertning yakuniy xulosalariga e'tibor qaratib, kirish va tadqiqot qismlariga ahamiyat bermaydilar. Bu noto'g'ri, chunki bunda xulosada keltirilgan faktlar, taqqoslash materiallarining etarli bo'lganligi kabi masalalar aniqlashning imkoni bo'lmaydi.

Har bir holatda identifikatsion belgilarga nisbatan berilgan xulosa qarama-qarshi emasligini tekshirish lozim. Gohida ekspert obyektlarning har xilligini aniqlab, bu haqdagi belgilarni ta'riflab, e'tiborsizlik yoki sovuqqonlik tufayli ijobiy xulosa qiladi (yoki aksincha). Ba'zan kirish qismida bayon qilingan holatlar tadqiqot qismidagi holatlarga zid bo'ladi. Gohida tadqiqot qismining o'zida ham ziddiyatlar uchrab turadi. Bunday ziddiyatlar ekspert xulosasining daliliy ahamiyatini kamaytiradi va uni rad etishga yoki takroriy ekspertiza tayinlashga asos bo'ladi.

Ekspert xulosasi va tergovchida shubha tug'dirmaydigan ish bo'yicha yig'ilgan boshqa dalillar mosligi uning yanada ishonchliligining omilidir. Agar ekspert xulosasi ish bo'yicha boshqa dalillarga zid bo'lsa, buning sababini aniqlab, ziddiyatni bartaraf etish choralarini ko'rish lozim.

Xuddi shunday odil sudlovni o'tkazishga ekspert xulosasiga asossiz shubha bilan qarash ham xalal beradi. Agar ekspert xulosasini baholash natijalari uning to'g'riligiga shubha tug'dirmasa, mazkur ekspertizaning to'g'riligini tekshirish uchun takroriy ekspertiza tayinlashning zarurati bo'lmaydi. Bu faqat tergovning va ishning sudga ko'rilishi muddatining cho'zilishiga sabab bo'ladi.

Har doim ham dastlab o'tkazilgan ikki ekspertiza o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun ekspertiza tayinlash va o'tkazish to'g'ri emas. Ayrim hollarda ulardagi farqlarni ishdagi materiallar bilan birgalikda xulosalarni tanqidiy baholash orqali bartaraf qilsa bo'ladi.

Tergovchi (sud) xulosani baholashda nafaqat ikki xulosa o'rtasidagi farqni, balki ekspert aniqlagan va ish bo'yicha boshqa dalillardan kelib chiqadigan faktlar o'rtasidagi farqlarni ham aniqlashi mumkin. Bunda ekspert xulosasi nafaqat ayrim dalillarga (masalan, ayblanuvchining ko'rsatmalariga), balki ish bo'yicha yig'ilgan barcha dalillarga ham zid bo'lishi mumkin. Tergovchi (sud)ning vazifasi bu farqning kelib chiqish sabablarini aniqlashi ularni boshqa dalillar bilan birgalikda bartaraf etishdir.

Ekspertning xulosa berish uchun imkon yo'qligi haqidagi xulosasi baholash. Agar ekspertning oldiga qo'yilgan savol uning maxsus bilimi chegarasidan chiqqan bo'lsa yoki ekspertiza o'tkazish uchun yuborilgan materiallar etarli bo'lmasa, u ekspertiza tayinlagan organga xulosa berishning imkoni yo'qligi haqida ma'lumot beradi. Bu haqda xulosani u xulosada yoki xulosa berish imkoni yo'qligi haqidagi akt shaklida rasmiylashtiradi (JPKning 185-moddasi). Mabodo, ekspert ba'zi savollar yuzasidan xulosa berib, boshqa savollar bo'yicha xulosa berishga imkon yo'q deb hisoblasa, u holda bitta hujjat – ekspert xulosasi tuziladi.

Xulosa berishning imkoni yo'qligi haqidagi ma'lumotni berishga asos – tadqiq qilinuvchi obyekt va taqqoslash uchun materiallar bilan bog'liq bo'lishi mumkin: tadqiq qilinuvchi obyektning uning kichik hajmi, to'liq qayta tiklashning imkoni yo'qligi, taqqoslash materiallarining yo'qligi yoki erkin va tajribaviy namunalarni olishning imkoni yo'qligi.

Namunalar etishmasligi tufayli xulosa berish imkoni bo'lmaganligi haqidagi xulosani ekspert faqat sud ajrimida, tergovchining qarorida yoki boshqa hujjat (ma'lumot, xat va shu kabilar)da namunalarni to'ldirib bo'lmashligi haqida ko'rsatilgan bo'lsagina berishi mumkin. Agar bunday ma'lumot bo'lmasa, ekspert talabnoma yuborishga majbur va bu talabnomani qondirishning imkoni yo'qligi haqida ekspert xabar olganidan so'ng masalani hal qilish uchun imkon yo'qligi haqida xulosa beradi.

Xulosa berishning iloji yo'qligi haqidagi ma'lumot xuddi ekspert xulosasini baholash prinsiplari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'pincha tergovchi (sud)lar bunday ma'lumotlarga tanqidiy yondashmaydilar. Takroriy ekspertizalar o'tkazish amaliyoti ko'rsatadiki, ba'zida xulosa berishning imkoni yo'qligi haqidagi ma'lumotlar ekspert aniqlagan belgilarning noto'g'ri baholaganidan, namunalarning etarli

emasligidan, ayrim hollarda esa ekspert o'zini muhofaza qilishidan kelib chiqadi. Takroriy ekspertiza o'tkazilganda birlamchi ekspertiza javob bermagan savollarga javob berilganligiga misollar ko'p. Lekin sud (tergovchi) tomonidan sifatli qo'shimcha materiallar bilan ta'minlamay takroriy ekspertiza tayinlanish hollari ham uchrab turadi.

Ba'zida takroriy ekspertizani tayinlash tergovchi (sud)ning ekspert qanday sabablarga tayanib o'z oldiga qo'yilgan savollarni hal qilmaganligini tushunmasligi oqibati bo'ladi.

Ekspert xulosasidan ish holatlarini aniqlashda va qonunbuzarliklarning oldini olishda foydalanish. Ekspert xulosasini baholab, tergovchi (sud) ish holatlarini aniqlashda undan to'g'ri foydalanishi kerak. Agar xulosada ayrim holatlar haqida ma'lumot bo'lsa, xulosaning tergovchi (sud) tomonidan to'g'ri deb baholanishi shu holatlarni tergovchi (sud) aniqlaganini bildiradi.

Jinoiy ishlar bo'yicha ekspertiza o'tkazilganda jinoyat sodir qilishga yordam bergan holatlar ham aniqlanishi lozim. Bu, avvalo, sud-buxgalterlik, sud-avtotexnik, kriminalistik ekspertizalarga tegishlidir.

Amaldagi me'yoriy hujjatlar ekspert muassasalari xodimlariga sud (tergovchi)ning topshirig'iga va o'z tashabbusiga binoan, maxsus bilimlariga tayangan holda jinoyat sodir etishga yordam bergan holatlarni aniqlashni yuklagan. Xususan, buxgalter-ekspertlar ko'pincha buxgalterlik hisobidagi kamchiliklarni, avtotexnik-ekspertlar yo'l-harakatidagi kamchiliklarni, kriminalist-ekspertlar esa hujjatdagi kamchiliklar va hokazolarni aniqlaydilar. Afsuski, sud (tergovchilar) jinoyat sodir etishga qulay vaziyat yaratgan sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vazifalarni ekspertlar oldiga qo'ymaydilar, ekspertlar o'z tashabbuslari bilan hal qilgan bu toifadagi savollarga javoblarni inobatga olmaydilar. Vaholanki, ekspertning profilaktik xarakterdagi takliflari sud (tergovchi) tomonidan sinchkovlik bilan o'rganib chiqilib, jinoyatning oldini olishda foydalanishi lozim. Agar sud (tergovchi) ekspert tavsiyaga rozi bo'lmasa, bu haqda asosli ajrim (qaror) chiqarishi lozim.

Ekspertiza o'tkazish jarayonida aniqlangan holatlardan fuqarolik ishlari ko'rilayotganda ham foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №22. – 173-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Суд экспертизаси тўғрисидаги қонуннинг қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 2010 йил 1 июнь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – 2010. – №22. – 174-м.

Закурлаев А.К. Йўл транспорт ходисаларида суриштирувчи ва терговчи томонидан эътибор қаратиладиган жиҳатлар // Ўқув-услубий қўлланма. – Т., 2015.

Абакиров К.К. Процессуальные и организационные проблемы применения специальных познаний при производстве судебных экспертиз: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 44-55.

Астанов И.Р. Жинойт ишлари бўйича экспертиза ўтказиш: назария ва амалиёт. Дисс. ... юрид. фан номзоди. – Т., 2010.

Ивашко В.И. и др. Деятельность экспертно-криминалистических подразделений органов внутренних дел по применению экспертно-криминалистических методов и средства в раскрытии и расследовании преступлений. – М., 1996.

Кочубей А.В. Теоретические основы учения о микрообъектах: Монография. – Волгоград, 2007.

Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М., 2000.

Орлова В.Ф. Законодательная регламентация судебной экспертизы: состояние и пути совершенствования // Судебная экспертиза. – 2004. – №1. – С.12-14.

Орлова В.Ф. Проблемы унификации правовой основы судебной экспертизы и пути их решения // Теория и практика судебной экспертизы. – 2007. – №4. – С.15.

Рисунков Н.К. Криминалистика: проблемы и тенденция развития. – М., 2006.

Скорченко П.Т. Криминалистика: технико-криминалистическое обеспечение расследования преступлений. – М., 2004.

Смирнова С.А. Судебная экспертиза на рубеже XXI века. Состояние, развитие, проблемы. 2-е издание, переработанное и дополненное. – СПб., 2004.

Тарасов А., Тарасов М. О коллизиях в нормативной регламентации судебно-экспертной деятельности по уголовным делам // Уголовный процесс. – 2008. – №1. – С.98-103.

Хафизов Ш.Н. О нормативно-правовом регулировании судебно-экспертной деятельности // Адвокат. – 2007. – №5. – С. 58-61.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
1-§. Mikroobyektlar tushunchasi va ularning tasniflanishi	6
2-§. Hodisa sodir bo‘lgan joyda mikroobyektlarni aniqlash va olish	15
3-§. Mikroobyektlarning dastlabki tadqiqotlari metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari	22
4-§. Mikroobyektlar bo‘yicha ekspertizalar	26
5-§. Sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazish masalalari	28
6-§. Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlar ekspertizasi	45
7-§. Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi ..	46
8-§. Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari ekspertizasi.....	49
9-§. Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiali eksperizasi.....	53
10-§. Shisha va undan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi.....	58
11-§. Maxsus kukunlar ekspertizasi.....	60
12-§. Polimer materiallar (plastmassalar, rezina, elimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi	62
13-§. Odam DNK sud-biologik ekspertizasi	64
14-§. Sud-biologik ekspertizalari.....	68
15-§. Ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini hujjatlashtirish	70
16-§. Ekspert xulosasini baholash va undan foydalanish	73
Adabiyotlar ro‘yxati	79

NIKISHIN Gennadiy Fyodorovich;

XUSANOV Anvar Djumabaevich;

MAMATQULOV Tulqin Boyxo‘rozovich;

LUQMONOV Muzaffar Muxtorxonovich

MIKROOBYEKTAR TADQIQOTI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir S.S.Qosimov

Texnik muharrir D. R. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 04. 05. 2017. Nashriyot-hisob tabag‘i 5,0.

Adadi 30 nusxa. Buyurtma № . Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.